

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**



**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti**

**«TASDIQLAYMAN»
Iqtisodiyot va boshqaruv
fakulteti dekani i.f.n.,
dotsent _____ F.B.Axrorov
«___» _____ 2013 yil**

**«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrası
5340100-«Iqtisodiyot» (qishloq xo'jaligi) yo'nalishi bo'yicha**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “Qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligi”(Jizzax viloyati Forish tumani fermer xo'jaliklari misolida)

Bajardi: 5340100-«Iqtisodiyot»
(qishloq xo'jaligi) yo'nalishi
4- bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: assistent

Bozorov A.
Kazakova Z.

**Bitiruv malakaviy ish muhokama
qilindi va himoyaga ruxsat berildi**

**Kafedra mudiri, i.f.d., professor
_____ O.Murtazaev
«___» _____ 2013 yil.**

SAMARQAND – 2013

Mundarija

Kirish.....	4
1.Mavzuni nazariy asoslash va adabiyotlar sharhi.....	7
2.Lizing xizmatlari shakllanishining nazariy asoslari.....	15
2.1. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya qilish sharoitida lizing xizmatlaridan foydalanish.....	15
2.2. Lizing xizmatlarining iqtisodiy tabiati va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitidagi mohiyati.....	21
2.3. Lizing xizmatlarining mazmuni, asosiy belgilari va afzalliklari.....	34
3. Xo'jalik moliyaviy holatining tahlili.....	43
3.1. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili.....	43
3.2. Korxona moliyaviy barqarorligining tahlili.....	48
3.3. Korxona to'lov qobiliyatining tahlili.....	53
3.4. To'lovga qodirlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari.....	56
4. Qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligi.....	60
4.1. Lizing jarayonlarini rivojlantirish tahlili va lizingdan foydalanishning hozirgi xolati.....	60
4.2. Lizing asosida texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	71
4.3. Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda lizing va kredit resurslaridan foydalanishning afzalliklari.....	79
5. Qishloq xo'jaligida mehnatni muhofaza qilish.....	85
Xulosa va takliflar.....	89
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	93

Kirish

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng Respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyati tug'ildi. Bu siyosatning ustuvor yunalishi bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishdan iborat. O'z navbatida bozor iqtisodiyoti ko'p bo'g'inli infratuzilmani yaratishni talab etadi. Shu sababli, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz rahbari I.Karimov o'z chiqishlarida bozor munosabatlarining asosini tashkil etadigan kichik va o'rta biznes rivojlanshiga mutonasib ravishda bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini: sug'urta, auditorlik, konsalting tashkilotlari qatorida, lizing kompaniyalarini tuzish zarurligini e'tirof etish bilan birga, ushbu infratuzilmalarga ega bo'lmasdan bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmasligini alohida qayd etgan.

Lizing bozor infratuzilmaining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o'zida mujassam etadi. 90-yillarning birinchi yarmida bozor islohotlari natijasida bank, kredit muassasalari va korxonalar ilgari iqtisodiyotimizda qo'llanilmagan ko'pgina moliyaviy dastaklardan foydalana boshladi. Ayni shu yillarda lizing tuzilmalarini faol tashkil etish, iqtisodiyotning ushbu sohasiga investisiyalarni jalb qilish, lizing munosabatlarining xuquqiy asoslarini shakllantirish boshlandi.

Lizing zamohaviy ilg'or texnologiyalar fan va texnika taraqqiyoti natijalarini zudlik bilan amaliyotga tadbiiq etishda, qo'l keladigan moliyaviy vositalardan biri bo'lib, qadim zamonlardan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida rivojlanib keladi. Lizing, uning ishtirokchilari manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqaruvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchilarning faoliyatlarini makon va zamonda amalga oshirishga va jadallashtirishga imkon beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri iqtisodiyotida O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tez sur'atlar bilan rivojlantirish, bir tomondan zamonaviy uskuna va texnologiyalarni qo'llashni, ikkinchi tomondan esa zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni izlab topishni talab etadi. Zamonaviy yangi texnika, uskuna va texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar, moliyaviy resurslarga ega

bo'lgan va bu mablag'larni samarali joylashtirish maqsadlarida faoliyat yurituvchilar hamda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati sohiblari o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishida lizing juda ham qo'l keladi.

Yangi texnika, uskuna-jihozlarni moliyalashtirish uchun moliyaviy manbalarni izlab topish bozor, shu jumladan lizing infratuzilmasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Lizingning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, korxonalarning moliyaviy resurslari cheklangan davrda lizing resurslarini tejash asosida mashina va uskunalar parkini qisqa muddatlarda yangilash imkonini beradi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moliyaviy resurslar yo'q bo'lganida ularning lizingdan tashabbuskorlik va tadbirkorlik bilan foydalanishi ayniqsa o'rinli bo'ladi. Lizing xorijiy kapitalni, zamonaviy texnologiyani va "nou-xau"ni jalb etish uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston respublikasida iqtisodiyotning nodavlat sektorida lizing xizmatiga talab ayniqsa katta, chunki bu sektorda kapital hajmi kam, amortizasiya ajratmalari oz, ayrim hollarda esa mutlaqo yo'q. Ularning boshqa vositalari ham yo'q, jamg'armalari esa etarli emas. "Bugungi kunda lizing xizmatiga alohida ehtiyoj sezilmoqda. Xususan, kichik korxonalar, xususiy tadbirkorlar, fermer xo'jaliklari aynan lizing orqali zamonaviy ixcham texnologiyalarga ega bo'lishi mumkin. Bugun biz uchun g'oyat zarur bo'lgan investisiyalar oqimi kuchayishiga, qishloq xo'jalik texnikasini, transport va samolyotlar parkini yangilashda lizing amaliy vosita bo'lib xizmat qilishi zarur".

Respublikada tashkil etilgan 12 ta lizing kompaniyasidan keying yillarda atigi to'rttasi lizing faoliyati bilan shug'ullandi. "1999 yilda lizing kompaniyalari orqali atigi 20 ta loyiha amalga oshirilgani, investitsiyaning umumiy hajmida lizing salmog'ining mutlaqo kamligi bilan qahday murosa qilish mumkin?". 1997-2001 yillarda lizing kompaniyalari 11,9 mln. AQSH dollari va 26,6 mlrd. so'mlik asbob-uskuna taqdim etdi, shundan kichik va o'rta biznesni qo'llab quvvatlash uchun 4,2 mln. AQSH dollari va 8,32 mlrd. so'mlik asbob-uskuna berildi. Shunga qaramay, lizing iqtisodiyotning real sektorida ishlab chiqarishni modernizasiya qilish va qayta qurollantirish sohasida oshib borayotgan ehtiyojlarni to'la to'kis

qondirmaydi. 2000 yil yakunlariga ko'ra , yalpi ichki mahsulotga nisbatan lizing xizmatlarining hajmi bor-yo'g'i 0,03 foizni tashkil etdi.

Tashkil etilgan lizing kompaniyalari hali unchlik rivojlanmagan, shu sababli KO'B va XT qishloq xo'jalik korxonalarining investitsiya faoliyatidagi ko'pgina vazifalarni zimmasiga olomadi. Avvalo katta lizing bitimlari uchun lizing kompaniyalarining kapitali etishmasligini ta'kidlash zarurdir. Ular tomonidan qarz mablag'larni jalb etish uchun bo'sh turgan resurslar bo'lishi talab qilinadi. Iqtisodiyotda likvid mablag'larning mavjudligi moliyaviy vositachilik rivojlanganligini oldindan belgilab beradi va aslida umuman milliy iqtisodiyotning moliyaviy tizimi samaradorligidan dalolat beradi. Moliyaviy vositachilikni rivojlantirish yo'li bilan kredit resurslari vujudga keltiriladi, moliya va bank institutlari o'rtasidagi raqobatni kuchaytiradi.

Moliyaviy resurslarga ega bo'lgan har qanday tashkilot lizing kompaniyasi sifatida asbob-uskunani lizingga topshirishi mumkin. Biroq, chet el amaliyotida tasdiqlanishicha, kizingni yirik korporasiyalar huzurida marketing xizmati tashkil etish o'rniga, banklar huzurida lizing kompaniyalar tuzish yo'li bilan rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. O'zbekistonda lizing kompaniyalari tuzganda chet el tajribasiga tayanish va ularni shakllantirishning samarali yo'llarini belgilash zarur bo'ladi. Tijorat banklari huzurida lizing kompaniyalari va ularning mintaqa filiallarini barpo etish maqsadag muvofiq bo'ladi.

Jahon amaliyoti tajribasi ko'rsatishicha, lizing yordamida bir vaqtning o'zida katta mablag' sarflamasdan turib asosiy ishlab chiqarish vositalarini yangilash, ishlab chiqarishga zamonaviy yuqori texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini ko'paytirish va sifatini oshirish mumkin.

Respublika Prezidenti I.Karimov: «Qishloq xo'jaligini ish samaradorligi yuqori bo'lgan, zamonaviy texnika vositalari bilan lizing asosida ta'minlash tizimining joriy etilishi oldinga tashlangan muhim qadam bo'ldi, shu narsa aniqki, qishloq mexnatkashlarini texnika bilan ta'minlashning bu usuli katta istiqbolga ega» deb ta'kidlagan edi. Shu boisdan «Qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligi» mavzusi **dolzarbdir**. Bu borada tumanda olib

borilgan ishlar diqqatga sazovordir, jumladan tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlab olganimiz Jizzax viloyati Forij tumanida bugungi kunda lizing infratuzilmasining tashkil topishi uni rivojlantirish masalalari, lizing xizmatlarini rivojlantirish istiqbollarini o'rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Shuni hisobga olgan xolda, bitiruv malakaviy ishimizni qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligini o'rganib chiqishni **maqsad** qilib oldik. Maqsaddan kelib chiqqan xolda quyidagi **vazifalar** belgilanib olindi.

- Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya qilish sharoitida lizing xizmatlaridan foydalanishni o'rganish;
- Lizing xizmatlarining iqtisodiy tabiati va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitidagi mohiyatini o'rganish;
- Lizing xizmatlarining mazmuni, asosiy belgilari va afzalliklarini ochib berish;
- Xo'jalik moliyaviy holatining tahlil qilish;
- Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlil qilish;
- Korxona moliyaviy barqarorligining tahlil qilish;
- Korxona to'lov qobiliyatining tahlil qilish;
- To'lovga qodirlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullarini o'rganish;
- Qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligi.
- Lizing jarayonlarini rivojlantirish tahlili va lizingdan foydalanishning hozirgi xolatini tahlil qilish;
- Lizing asosida texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish;
- Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda lizing va kredit resurslaridan foydalanishning afzalliklarini aniqlash;
- lizing munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

1.Mavzuni nazariy asoslash va adabiyotlar sharhi

Quyida aynan bitiruv malakaviy ishini yozish davomida qo'llanilgan ba'zi adabiyotlarga qisqacha sharh berib o'tamiz.

1.Karimov.I.A. Bosh maqsadimiz—keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo'jallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi. 19.01.2013.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalombor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozorlaridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi. Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi. Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi. Eksport hajmi sezilarni ravishda, yani 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xom ashyo bo'lmagan tayor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Inflyasiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi. 2012 yilda ham, so'ngi yillarda kabi, yangi mavsumga tayorgarlik ko'rish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lgani, bahorning kech kelgani va namgarchilikning yuqori bo'lgani, yoz faslida havo haroratining haddan ziyod oshib ketgani qishloq xo'jalik ishlarini amalga oshirishda jiddiy muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil etishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ib – terib olindi. Bularning barchasi, avvalombor, dehqonlarimiz, fermer va mexanizatorlarimiz , qishloq xo'jaligi mutaxasislarining o'zini ayamasdan qilgan fidokorona mehnati, boy tajribasi va

o'z ishiga bo'lgan sadoqatning amaliy natijasidir. Bugungi kunda fermer xo'jaligi haqli ravishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning etakchi bo'g'iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtda fermerlik harakati o'z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo'jaligini birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagi jami haydaladigan yerlarning 85 foizdan ortig'i, etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Fermerlik o'zining tarixiy ildizlarga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida Fermer xo'jalilari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimi, ushbu tuzilmalarning xuquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

2.Karimov.I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarni ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish–bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzası. // Xalq so'zi. 07.12.2012.

Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yilning 7 dekabr kuni “O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan “Inson manfaati, huquq va erkinliklarni ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir” mavzusidagi ma'ruzasida ana shu yutuq va ulkan natijalarning sabab va omillari har tomonlama chuqur tahlil etib berildi. Davlatimiz rahbari mamlakatimizda istiqloq yillarida demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida erishilayotgan barcha yutuq va marralar, hayotimizga yangicha mazmun bag'ishlayotgan keng ko'lamli islohotlar zahirida Konstitutsiyamizda mustahkamlangan me'yor va qoidalar, asosiy tamoyillar mujassam ekanini alohida ta'kidladi. Ma'ruzada O'zbekiston 1991 yil 31 avgustda o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan eski ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, xalqimizning orzu-intilishlariga mos taraqqiyot yo'lini tanlab olgani va bu yo'l naqadar to'g'ri va hayotiy asosga ega ekanligi

hozirgi kunda har tomonlama tasdig'ini topayotganiga alohida e'tibor qaratildi. Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, hatto jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi davom etayotgan murakkab sharoitda ham, 8 foizdan kam bo'lmagan darajada saqlanib qolmoqda. O'zbekistonning tashqi qarzi ko'paymasdan, maqbul darajada saqlanib qolmoqda. Ma'ruzaning ikkinchi qismida 2012 yilni mamlakatimizda "Mustahkam oila yili" e'lon qilishdan ko'zlangan maqsad- muddaolar hamda ularni amalga oshirish bo'yicha bir yil davomida qilingan keng miqyosdagi ishlar qisqacha tahlil etilib va baholanib, Ozbekistonda inson manfaatlarini ta'minlash, aholining hayot sifatini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning ma'no-mazmuni, ahamiyati misollar, raqamlar asosida ochib berildi. Ma'ro'zaning uchinchi qismida mamlakatimizda 2013 yilga "Obod turmush yili" deb nom berishdan ko'zlangan maqsad, buning mohiyati va ahamiyati, mazkur yil bo'yicha qabul qilinadigan davlat dasturining asosiy ustuvor yo'nalishlari hamda ularni amalga oshirish yo'l-yo'riqlari, bu borada aholining turli qatlamlari, butun jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifalar keng tahlil etilib, g'oyat muhim fikr hamda xulosalar ilgari surilgan.

3. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.

“Bugun biz tarixiy bir davrda - xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan xolda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro xamjamiyat tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik berganini bugun xammamiz chuqur anglaymiz”. Bu kitobda bugungi globallashuv davrida ma'naviyat soxasida vujudga kelayotgan

dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirishga aloxida e'tibor qaratiladi.

4.Karimov.I.A. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.-T.: O'zbekiston, 2009.

Ushbu asaring mohiyati va ahamiyati shundaki, unda jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi davrida uni bartaraf etishning yo'llari bo'yicha xar tomonlama asoslangan aniq qarashlar, amaliy xulosalar ilgari surildi. Kitob ikki qismdan iborat bulib, birinchi qismi “Jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar” deb nomlangan. Unda jaxon moliyaviy inqirozini keltirib chiqargan sabablar, uning xozirgi paytda dunyo miqyosida qanday keskin ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni tug'dirayotgani va kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlari xar tomonlama chuqur taxlil etilgan. Kitobning ikkinchi qismida qator dolzarb masalalar, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari O'zbekistonga ham salbiy ta'sir ko'rsatish mumkinligi xaqida fikr yuritiladi.

5.Jo'rayev.F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. –T.: Istiqlol, 2004.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va xo'jalik yuritishning turli shakllari vujudga kelish sharoitida mavjud texnika vositalaridan samarali foydalanish o'z navbatida bozor infrastrukturasini shakllantirish, xizmat ko'rsatish bo'limlarini tashkil qilish hamda ularning faoliyatini takomillashtirishni taqozo qiladi. Shuningdek, qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy ahvolini qoniqarsizligi, moddiy texnika resurslari va uskunalar narxlarining yuqoriligi tufayli fermer xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi sub'ektlar texnika uskunalarini sotib olish va ulardan unumli foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Bu esa muqarrar ravishda moddiy texnika bazasi bilan ta'minlash, ularga xizmat ko'rsatish tizimlarini tubdan isloh qilish asosida, tarmoqlarda bozor munosabatlari tizimini rivojlantirish zarurligini taqozo qiladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad qishloq xo'jaligi lizing tizimini yaratish va uni takomillashtirishdan iboratdir.

6. Ismoilov. A.K., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.

Mustaqil rivojlanish yillarida mulkni davlat tasarrifidan chiqarish, ko'p ukkladli iqtisodiyotni shakllantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Bozor iqtisodiyoti tizimini takomillashtirish bo'yicha ham islohotlar chuqurlashtirilmoqda. Barcha turdagi mahsulotlar shartnoma asosida yoki erkin bozor sharoitida sotilmoqda. Ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra iqtisodiy nochor korxonalarga davlat tomonidan moliyaviy yordam berish chora- tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ushbu adabiyot qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining umumiy masalalari, tovar-pul munosabatlari, mulkchilikni tashkil topish xususiyatlari, resurslar potentsiali ularni baholash va oqilona foydalanish, shuning dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini tashkiliy-iqtisodiy asoslari, biznes rejalashtirishni takomillashtirish va shunga o'xshash dolzarb muammolarni o'rganish xususiyatlari yoritilgan. Qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan ishlar va qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti bo'yicha batafsil yoritilib berilgan. Bozor iqtisodiyotining barqaror samaradorligini ta'minlash uchun har bir shaxs iqtisodiy bilim olishi va uni mustahkamlashga intilishi zarur, chunki kimlar bozor talablari darajasida ishlab chiqarishni va sotishni uddasidan chiqa olmasa, ular inqirozga yuz tutadi va mustaqil rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

7. Olimjonov O., Farmonov T., va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – T.: Universitet. 2005.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan yaratib berilgan bozor islohotlariga o'tishning tamoyllari asosida qishloq xo'jaligi rivojlanichida

tub burilish yasaldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida" gi Farmoni qishloq xo'jaligida tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo'lib, tarmoq rivojlanishidagi yangi bosqichni boshlab berdi. Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mulkchilikning ijara shakllarini shartnomaviy munosabatlarga asoslangan xo'jalik yuritish tizimini

rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatini ana shu maqsadga qaratish, turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yuritish sub'ektlari saqlanib qolgan holda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish muhim yo'nalish etib belgilandi. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish tanlov asosida, oshkoralikni ta'minlagan holda amalga oshirilmoqda. Shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklariga ishlab chiqarish faoliyatida yanada keng erkinlik berildi, bir vaqtning o'zida yer – suv resurslaridan unumli foydalanish va shartnoma shartlarini bajarishda tomonlarning javobgarligi ba mas'uliyati oshirildi. Farmonda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan bosh maqsad islohotlarni yanada jadallashtirish, mavjud tabiiy, iqtisodiy, tashkiliy va mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, pirovard natijada aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan. O'zbekiston qishloq xo'jaligining asosiy bo'giniga aylanib borayotgan fermer xo'jaliklariga uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida ushbu kitob tayyorlandi.

8.G'ozibekov D.F. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2004.

Lizing zamonaviy ilg'or texnologiyalar fan va texnika taraqqiyoti natijalarini zudlik bilan amaliyotga tadbiiq etishda, qo'l keladigan moliyaviy vositalardan biri bo'lib, qadim zamonlardan dunyoning ko'pgina mamlakatlarida rivojlanib keladi. Lizing, uning ishtirokchilari manfaatlaridan kelib chiqqan xolda, ishlab chiqaruvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchilarning faoliyatlarini makon va zamonda amalga oshirishga va jadallashtirishga imkon beradi. Hozirgi paytda mamlakatimizda lizing munosabatlarining qonunchiligi ishlab chiqilgan, takomillashtirilib borilmoqda, lizing infratuzilmasi tashkil topmoqda va lizing moliyalashtirishning usuli sifatida kengayib bormoqda. Qullanmada lizing munosabatlari tarixi, ularning kelib chiqish asoslari, sabablari, ilg'or mamlakatlar tajribasi bayon etiladi. Iqtisodiy bilim soxiblari uchun lizingni iqtisodiy tabiati va moxiyati to'la asoslangan ravishda ochib beriladi. Lizingni asosiy belgilari va afzalliklari, uning kredit, ijara, yollash munosabatlaridan tub farqlari isbotlangan

xolda yoritiladi. O'zbekistonda xozirgi sharoitda qabul qilingan qonunchilikka muvofiq lizing obyektlari sifatida amaliyotga tadbiiq etilishi mumkin bo'lgan lizing mulklari tarkibi bayon etiladi, lizing munosabatlari subyektlari tavsiflanadi

9. Zokirov O., Xudoyberdiyev T., Pardayev A. Agroiqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida texnikadan samarali foydalanish.-T.: Fan va texnologiya , 2005.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni juda ko'p, xilma-xil resurslar ishtirokida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish samaradorligi - bu resurslarning o'zaro birikish qonuni xolatiga bog'likdir. Bu resurslar orasida moddiy texnika resurslari salmoqli o'rinlardan birini egallaydi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayonini texnik resurslarsiz tashkil etish mumkin emas. Bu resurslarsiz mexnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishga yangi fan –texnika yutuqlarini va yangiliklarini joriy etib, xamda samaradorligini oshirishga erishib bo'lmaydi. Ushbu risolada texnikadan foydalanishda ish samaradorligini oshirishni aniqllovchi ko'rsatkichlarni yanada chuqurroq va ilmiy taxlil etilgan. Ko'p ukladli agrar ishlab chiqarish sharoitida texnikadan foydalanish omillari, texnikadan foydalanish lizing tizimi va uning takomillasha borish usullari, agrar soxada texnika vositalari va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish omillari bayon etilgan.

10.Abdullayev S.P., Abdurahmonov M.A va boshqalar. Lizing... Bu nima?-T.: Oz'bekiston, 2006.

Qo'llanma cakkiz qismdan iborat bo'lib, ularda lizing va uning sub'ektlari haqida asosiy tushunchalar, lizing to'lovlari jadvallari va lizing jarayonlarini amalga oshirish bosqichlari bayon etilgan. Shuninigdek, tadbirkorlarga yordam sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi lizing beruvchilar va ularning shartlari haqida ma'lumotlar berilgan.

2. Lizing xizmatlari shakllanishining nazariy asoslari

2.1. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya qilish sharoitida lizing xizmatlaridan foydalanish

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng Respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini o'tkazish imkoniyati tug'ildi. Bu siyosatning ustuvor yunalishi bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishdan iborat. O'z navbatida bozor iqtisodiyoti ko'p bo'g'inli infratuzilmani yaratishni talab etadi. Shu sababli, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz rahbari I.Karimov o'z chiqishlarida bozor munosabatlarining asosini tashkil etadigan kichik va o'rta biznes rivojlanshiga

mutonasib ravishda bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini: sug'urta, auditorlik, konsalting tashkilotlari qatorida, lizing kompaniyalarini tuzish zarurligini e'tirof etish bilan birga, ushbu infratuzilmalarga ega bo'lmasdan bozor mexanizmlari to'liq ishlay olmasligini alohida qayd etgan.

Lizing bozor infratuzilmaining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatimiz uchun nisbatan yangi moliyaviy dastakni o'zida mujassam etadi. 90-yillarning birinchi yarmida bozor islohotlari natijasida bank, kredit muassasalari va korxonalar ilgari iqtisodiyotimizda qo'llanilmagan ko'pgina moliyaviy dastaklardan foydalana boshladi. Ayni shu yillarda lizing tuzilmalarini faol tashkil etish, iqtisodiyotning ushbu sohasiga investisiyalarni jalb qilish, lizing munosabatlarining xuquqiy asoslarini shakllantirish boshlandi.

Xususan, 1995 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolnk kodeksining birinchi qismi, 1996 yil 29 avgustda esa Ushbu kodeksning ikkinchi qismi tasdiqlandi. Fuqarolik kodeksining 34-bobidagi oltinchi band lizingga ya'ni moliya ijarasiga bag'ishlangan bo'lib, unda lizingning ta'rifi berilgan, jami 13 moddadan iborat bo'lgan bu banda lizing shartnomasi, obykti, subyekti, lizing to'lovlari, tomonlarning majburiyatlari, javobgarliklari, xuquqlari va qator boshqa masalalarni qamrab olgan.

Ayni shu davrda «O'zbeklizing interneshnl» AJ (1995 y.), Osiyo-Yevropa trast kompaniyasi (OYETK) (1996 y.), «Baraka» universal lizing kompaniyasi OAJ (1996 y), «O'zkeysagrolizing» KK (1997 y), «O'zavializing» aksiyadorlik lizing kompaniyasi (1997 y.) kabi hozirgi kunda xam samarali faoliyat yuritayotgan milliy va qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bu lizing tuzilmalarni shakllantirishda chet el tajribasidan foydalanildi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi esa lizing kompaniyalari tomonidan mavjud uskunalarni texnik qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish borasidagi ko'plab misollarga boy. Shu tajribadan samarali foydalanish xamda endigina shakllanayotgan lizing xizmatlari bozorining to'laqonli amal qilishini tashkillashtirish maqsadida lizing faoliyatiga ixtisoslashgan me'yoriy-xuquqiy

asoslarni shakllantirish zaruriyati tug'ildi. Va shu bois 1998 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi «Lizing to'g'risida» gi qonun loyihasi Oliy Majlisning sessiyasiga muhokama uchun kiritildi. 1999 yil 14 aprelda esa Oliy Majlisning qarori bilan O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida» gi qonuni kuchga kirdi.

O'zbekistonda yaqin yillargacha 6 ta lizing kompaniyalari faoliyat yuritardi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida Respublikamizda lizing munosabatlarini rivojlaitirish va keng yo'lga qo'yish uchun xo'jalik sub'ektlarining to'lov qobiliyatini kuchaytirish, turli tahlikalarni oldini olish, qayta moliyalash stavkalarini pasaytirish kabi muammolarni qo'yadi. Respublikamizda lizing oluvchi sub'ektlar yetarli darajada, asosiy vazifa esa lizing infrastrukturasi rivojlanishidir. Hozirda esa soliq imtiyozlarini yaratish, tezlashtirilgan amortizasiya siyosatini qo'llash imkoniyatlari lizing kompaniyalarning o'zlariga xavola etish, amortizasiya muddatlarini aniqlashda, amortizasiya ajratmalarini ishlatishda erkinliklar yaratish asosiy masaladir. Umuman olganda, lizing tarmog'ini rivojlanishi iqtisodiy rivojlanishga bir necha yo'nalishlar bo'yicha ta'sir ko'rsatadi:

- lizing kichik biznesning kelgusidagi rivojlanishiga ta'sir etadi, chunki qandaydir sabablarga ko'ra boshqa moliyalashtirish manbalariga ega bo'lmagan kichik korxonalarga o'z ishlab chiqarishlarini tashkil etish va modernizasiya qilish imkonini yaratib beradi.

- lizing uzoq muddatli moliyalashtirishning qo'shimcha turi bo'lib, u kapital qo'yilmalar xajmini oshiradi.

- lizing moliyaviy xizmat ko'rsatish bozorida qo'shimcha raqobatni vujudga keltiradi.

Keling endi, O'zbekistondagi lizing kompaniyalari xususida tuxtalib o'tamiz.

«Baraka» universal lizing kompaniyasi O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 9 noyabrda 427-raqamli qarori bilan tasdiqlangan va u 1996 yil 2 sentyabrda tashkil etilgan. U 1998 yil fevral oyida Yevropa Lizing

Kompaniyalari Assosiasiyalari Federasiyasi safiga qabul qilinishi uning nufuzi va obro-e'tibori oshganligidan dalolat beradi. «Baraka»-Yevropa mamlakatlarining 29 ta lizing assosiasiyasini birlashtiruvchi ushbu nufuzli shu bois 1998 yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi «Lizing to'g'risida» gi qonun loyihasi Oliy Majlisning sessiyasiga muhokama uchun kiritildi. 1999 yil 14 aprelda esa Oliy Majlisning qarori bilan O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida» gi qonuni kuchga kirdi. O'zbekistonda yaqin yillargacha 6 ta lizing kompaniyalari faoliyat yuritardi. 1995 va 1999 yillar mobaynida tashkil etilgan bo'lib, ularning har biri o'zlarining mo'ljallangan bozoriga ega edilar. Ular bir-birini takrorlamaydilar. Bitta kompaniya o'z xizmatlarini kichik va o'rta biznesga, ikkinchi esa «O'zavializing» Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan samolyotlar eksportiga ixtisoslashtirilgan. O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 9 noyabrda 427-raqamli qarori bilan tasdiqlangan va u 1996 yil 2 sentyabrda tashkil etilgan. 1998 yil fevral oyida Yevropa Lizing Kompaniyalari Assosiasiyalari Federasiyasi safiga qabul qilinishi uning nufuzi va obro-e'tibori oshganligidan dalolat beradi. «Baraka»-Yevropa mamlakatlarining 29 ta lizing assosiasiyasini birlashtiruvchi ushbu nufuzli tashkilot tarkibiga kirgan Markaziy Osiyo mintaqasidagi yagona lizing kompaniyasidir. 2001 yilning dekabrda kompaniya ma'suliyati cheklangan jamiyat «Baraka» universal lizing kompaniyasi sifatida ta'sis etildi. So'ng 2003 yilning aprelda kompaniya ochiq aksiyadorlik jamiyati «Baraka» universal lizing kompaniyasi sifatida 1 mlrd so'mlik ustav kapitaliga ega kompaniyaga aylandi. Kompaniya ta'sischilari quyidagilardan iborat:

- 1) O'zbekiston banklari assosiasiyasi - 600 ming so'mlik kompaniyaning 60 foiz aksiyasiga ega;
- 2) «Uzbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi - 250 ming so'mlik korxonaning 25 foiz aksiyasiga ega;
- 3) «Ipak yo'li» aksiyadorlik innovatsiya - tijorat banki - 150 ming so'mlik korxonaning 15 foiz aksiyasiga ega;

Kompaniyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi bozorini yuqori sifatli tovarlar import o'rnini bosadigan eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar bilan to'ldirishga ko'maklashadigan sifatli lizing xizmatlari ko'rsatish;
- qisqa va uzoq muddat foydalanish uchun ilg'or texnika va asbob-uskunalar, ko'char-kuchmas mulkni ijaraga berish;
- xorijiy bozorlarni marketing bo'yicha o'rganish, ya'ni jahon standartlariga mos keladigan eng zamonaviy texnologiyalarni O'zbekistonga olib kelish;
- asosiy ishlab chiqarish fondlarini lizing asosida yangilashga qaratilgan investisiya loyihalarini ro'yobga chiqarish uchun Respublika banklarining pul mablag'larini va boshqa fondlaridan samarali foydalanish. Bu kompaniyaning asosiy mijozlari kichik va o'rta biznes subyektlaridir.

«O'zbek Lizing Intsrneshl» aksiyadorlik jamiyati O'zbekistan lizing bozorida birinchi bo'lib 1995 yilda tashkil etilgan kompaniyadir. Uning asosiy vazifalarni quyidagilardan iborat:

- texnik uskunalarini ishlatish uchun uzoq muddatli moliya;
- O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari uchun lizing doirasida yuqori texnologiyani jalb etish;
- Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishni o'stirishda kichik va o'rta biznesga keng tarmoqli lizing xizmatlarini taklif etish.

Uning ustav kapitali 4 million AQSH dollariga teng. Uning ta'sischi-lari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (15%), Xalqaro molnya korparasiyasi (15%), Malayziyaning «Malayan bankining Berxard» banki(35%) xamda U.R ning TIF banki (35%) hisoblanadi. U 68 mingdan 300 ming AKSh dollariga qadar bo'lgan qiymatda 7 ta loyiha bo'yicha o'z faoliyatini boshlagan. 2003 yilga kelib esa u 42 ta loyihani 10 million dollar atrofida amalga oshirdi. Bu kompaniya o'z valyuta mablag'iga ega bo'lgan yagona milliy lizing kompaniyasi hisoblanadi.

«O'zkeysagroliznng» qo'shma korxonasi. Bu qo'shma korxonaning asosiy vazifasi Respublika aggap sektoriga lizing bo'yicha yuqori unumli qishloq xo'jalik texnikasini yetkazib berishdir. O'zbekiston banklari assosiyasiyasi va Amerikaning “ Keys kredit xolding” kompaniyasi o'rtasida qishloq xo'jaligi

bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib "O'zkeysagrolizing" kompaniyasi tashkil etilgan. Bu o'zbek-amerika qo'shma korxonasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 27 fevraldagi qarori bilan tashkil etilgan. Kompaniyaning ustav kapitali 5 mln. AQSH dollariga teng. Unda "Keys kredit xolding" kompaniyasining 51 foizni, O'zbekiston banklar assosiyasiyasining ulushi 49 foizni tashkil qilgan. U tashkil etilgandan to 2002 yilga qadar 72 million AQSh dollari bo'lgan 37 ta loyihani amalga oshirdi.

«Uzavialnznng» aksiyadorlik kompaniyasi. Bu kompaniya 1997 yil tashkil topgan bo'lib, ustav kapitali 24,5 million AQSH dollariga teng. Bu kompaniyaning ta'sischilari: Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi (61.22%), O'zbekiston Davlat mulk qo'mitasi (8.16%), O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki (8.16%), ixtisoslashtirilgan davlat aksiyadorlik «Asaka» banki(8.16%), «O'zsanoatmashservis» davlat aksiyadorlik kompaniyasi (4.06%), «Ularekorusurs» yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati(1.03%), «Sibaviatrans» aviakompaniyasi(4.08%), "Kedr" tijorat banki(4.08%), Sverdlsosbank (1.03%) hisoblanadi. U hozirgacha 15 million dollarga teng 1 ta loyihani amalga oshirdi. Navbatdagi amalga oshiriladigan lizing loyihalari Rossiya va Xitoy aviyakompaniyalari bilan amalga oshirmoqchi.

Osiyo-Yevropa trast kompaniyasi. Bu kompaniya 1996 yilda tashkil etilgan bo'lib, ustav kapitali 50 million dollarga teng. Bundagi ta'sischilar Kanada kompaniyasi 70% va Biznes-fondniki 30% dir. Dasturda lizing shartnomasi bo'yicha ishlab chiqarish uskunalari va texnologiyalarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha yetkazib berish ko'zda tutiladi:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash;
- qurilish materiallarini ishlab chiqarish;
- oziq - ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- dori-darmon ishlab chiqarish va yetkazib berish.

Hozirgi kunga kelib bu kompaniya 3,6 million AQSH dollariga teng 10 ta loyihani amalga oshirgan. Bundan tashqari yana O'zbekistonda **"O'zqishloqxo'jalik-**

mashlizing”, **“Quri lishlznng»”kompaniyasi** kabi lizing kompaniyalari mavjuddir. **«O’zqishloqxo’jalikmashlizing» kompaniyasi** 2000 yil 2 noyabrda tashkil etilgan bo’lib, uning vazifalari:

- «O’zagromashservis» uyushmasi mashina-traktor parklari, qishloq xo’jaligi kooperativlari va fermer xo’jaliklarining “O’zqishloqxo’jalikmashxolding” kompaniyasi korxonalarida ishlab chiqariladigan qishloq xo’jaligi texnikasini yetkazib berish yuzasidan berilgan buyurtmalarini umumlashtirish;

- Jamg’armaning kafolat xatlari bilan tasdiqlangan moliyaviy manbalar asosida “O’zqishloqxo’jalikmashxolding” kompaniyasi korxonalarida qishloq xo’jaligi texnikasi ishlab chiqarish yuzasidan buyurtmalarni joylashtirish;

joylashtirilgan buyurtmalarga muvofiq ishlab chiqariladigan qishloq xo’jaligi texnikasi uchun o’z vaqtida avanslar to’lash va uzil kesil hisob-kitob qilish;

- lizing shartnomalari tuzish va qishloq xo’jaligi texnikasini mashina traktor parklariga, qishloq xo’jaligi kooperativlariga va fermer xo’jaliklariga lizinga berish;

- lizing shartnomalari bo’yicha to’lovlarning o’z vaqtida tushishini nazorat qilish

2.2. Lizing xizmatlarining iqtisodiy tabiati va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz sharoitidagi mohiyati

O’zbekiston iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o’zgarishlar, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va tadbirkorlikning rivojlanishi asosiy kapitalni yangilash uchun qo’shimcha moliyaviy resurslar qidirishni, izlab topishni talab qiladi. Umuman milliy iqtisodiyot va xususan, yangi shakllanayotgan tadbirkorlik tuzilmalari ichki moliyaviy resurslarining cheklanganligi investisiyalarni moliyalashtirishning noan’anaviy manba va usullarini izlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shunday manba va usullar sifatida jahon amaliyotida xorijiy kapitalning ko’chib yurishiga asoslangan, qo’shma korporativ mulkchilikning yaratilishini keltirish mumkin. Bular xorijiy kredit liniyalarini, davlatlararo qarzlarni jalb qilish asosida lizing munosabatlarining yo’lga qo’yilishini keltirish mumkin. Shuningdek, lizing asosida yangi texnologiya va asbob-uskunalami foydalanish uchun olib turish amaliyoti buning dalilidir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlab o’tganlaridek «Mamlkatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo

etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi» Biroq, o'z o'rnida ta'kidlash lozimki, moliyaviy inqirozning respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlardagiga qaraganda mazmunni farq qiladi. Bu jarayon bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarning yopilishi bilan namoyon bo'lmoqda. Jahon moliyaviy va iqtisodiy inqiroz ko'p sohalarga juda katta zarba berdi, shu jumladan qishloq xo'jaligiga, sanoat, tadbirkorlik faoliyati va boshqa ko'plab sohalarga salbiy ta'siri sezildi. Shuni inobatga olgan tarzda qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirishga, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rne va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xo'jaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlar keng kompleksini amalga oshirilmoqda.

Lizing fan-texnika taraqqiyoti hamda xususiy, guruh va ijtimoiy manfaatlarni uyg'un ravishda birga qo'shish talablariga to'la-to'kis javob beradi. Moliyaviy qiyinchiliklar sharoitida lizing tadbirkorlarning eng yangi texnologiya va zamonaviy asbob-uskunalaridan bahramand bo'lishiga imkon beradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda lizing biznesning alohida bir turi sifatida qaraladi. U lizing mahsulotlarining ishlab chiqaruvchilari, iste'molchilari uchun, shuningdek, shu turdagi biznes bilan shug'ullanayotgan moliyaviy vositachilar uchun ham muhim bo'lgan bir qancha vazifalarni hal etadi. Ichki va tashqi bozorlar uchun qattiq raqobat sharoitida asbob-uskunalarining texnik xususiyatlarinigina emas, ayni vaqtda mazkur asbob-uskunalar iste'molchilariga qo'yiladigan moliyaviy shartlar, shuningdek qo'shimcha xizmatlar ham tobora ahamiyatli bo'lib boradi. Iste'molchilarning bunday qo'shimcha talablarini qondirishda moliyalashtirishning istiqbolli usuli bo'lgan lizing to'la-to'kis xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning shu yangi usulini yaqin kelajaqsa keng joriy qilish, shuningdek chet el tajribasidan to'g'ri

foydalanish uchun, bizning nazarimizda, lizingning iqtisodiy tabiati va mohiyatini chuqurroq anglab olish muhim masaladir. Lizingning mohiyatini to'g'ri tushunish, uning tabiatini, mazmunini va zamonaviy bozor iqtisodiyotida bajaradigan vazifalarini har tomonlama o'rganish esa milliy iqtisodiyotda uni keng ommalashtirish va rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Lizing tadbirkorlikda yangi, tobora kuchli qiziqtiruvchi omillarni vujudga keltiradi. U tashabbuskorlik va tadbirkorlik uchun, moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish uchun keng imkoniyatlar beradi. Lizing operatsiyalari zamonaviy ishbiarmonlik faoliyatiga tobora faol kirib bormoqsa. Jahon amaliyotida lizing biznesining barqarorligi ko'p jihatdan bank sektori bilan bog'lanmoqda. Masalan, Yevropa Hamjamiyati mamlakatlarida saksoninchi yillar oxirida yirik banklarning filiallari yoki ular bilan aloqador bo'lgan moliyaviy vositachilar faoliyatning shu turi bilan faol shug'ullana boshlaganlar.

Lizing nima? Uning tadbirkorlar uchun jozibadorligi nimalardan iborat. Uni O'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlari va istiqboli qanday?

Lizing bu mulkni vaqtincha foydalanishta berish yoki topshirishni bildiradi. Ba'zi manbalarda lizingni mashina, uskuna, transport vositalari va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa ko'char mulkni uzoq muddatli ijaraga olishni tushunmoq kerak, deb ta'kidlanadi.

Biroq, ayni vaqtda, ular aslida kredit tusida bo'lgan mazkur munosabatlarning tabiatini ko'pincha e'tiborga olmaydi. Ko'pgina mualliflar lizingning o'ziga xos funksiyalarini nazardan qochiradilar, holbuki bu funksiyalar o'z ma'nosiga ko'ra lizingning mohiyatini ifodalaydi. Ma'lumki, lizing — odatdagi ijara emas, balki uning o'ziga xos shakli bo'lib, lizingni kreditga yaqinlashtirib qo'yadi. Uning ijaradan farqi shuki, unda qoida tariqasida, uch va undan ko'proq subyekt, asbob uskuna yetkazib beruvchilar, lizing kompaniyalari va foydalanuvchilar qatnashadi.

Yevropa lizing kompaniyalari Uyushmalari Federasiyasining ta'rifiga ko'ra, lizing deganda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish uchun asosiy ishlab chiqarish vositalarini, shuningdek boshqa tovarlarni ijaraga olish tushuniladi. Ayni

vaqtda lizing bitimiga ko'ra lizing beruvchi bitim oxirigacha mulkchilik huquqini saqlab qoladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda "lizing — shunchaki ijara to'g'risidagi kengaytirilgan shartnoma" yoki "lizing — ijara munosabatlarining alohida turi..." yohud "butun ijara muddati davomida ijarachining mulkchilik huquqi saqlanib qoladigan ijara shartnomasi" degan fikrlarning tarafdorlari bor. Bunday ta'riflarda avvalo lizingning maqsadi, ijaraga beruvchining mulkchilik huquqi saqlanib qolishi ta'kidlanadi, lizing mol-mulkini qo'lga kirituvchi tomon aniqlanadi, ijara munosabatlari qayd etiladi. Shu bilan birga bu ta'riflarda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishning alohida usuli bo'lgan lizingning iqtisodiy tabiati va mazmuni aks etmaydi. Mazkur ta'riflarda bitimning o'ziga yoki ijara munosabatlarining shakliga zo'r beriladi-yu, ammo uning mazmuni mohiyati ochib berilmaydi. Mamlakatimizdagi va xorijiy adabiyotlarda lizingning boshqa ta'riflari ham uchraydi.

Ayrim iqtisodchilarning hisoblashicha, lizing ko'char va ko'chmas texnikalarni ijarachiga sotish imkoniyatini beradigan hamda uni ijaraga olish shartnomasini ko'zda tutadigan professional kreditning bir turidir.

Lizingga berilgan bu ta'riflarning mualliflari ijaraga berish jarayonida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarning tafovutlarini aytib o'tadilar, lizing mulkiga egalik qilish huquqini undan foydalanish huquqidan farqlaydilar, uni opsion asosida qo'lga kiritish (sotib olish)ning afzalliklarini ko'rsatishga intiladilar. Ayrim nashrlarda lizing va ijara tushunchalari o'rtasiga tenglik belgisi qo'yiladi va lizing yer uchastkasi, bino, inshoot, asbob-texnikadan, odatda, renta shaklidagi to'lov evaziga foydalanish yoki ularni qarzga olish huquqini berish tarzidagi «shakl» deb ta'riflanadi. Bu tarzidagi ta'rif, birinchidan, lizingning iqtisodiy tabiati, mazmuni, mohiyatini ochib bermaydi. Ikkinchidan, lizingning bu ta'rifida foydalanish huquqi va haq to'lash majburiyati aks etadi. Uchinchidan, iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan lizingning yoki lizing munosabatlarining mohiyati bayon etilmaydi. Bizning nazarimizda, lizingni to'g'ri talqin etish, lizing munosabatlarining mohiyatini belgilash uchun chet el amaliyotida lizingning paydo bo'lishi va qaror topishga undagan sabablarni chuqur bilib olish kerak. Lizing rivojlangan bozor iqtisodiyoti

mamlakatlarda gurkirab rivojlanishi bir narsa-yu, uning rivojlanayotgan iqtisodiyotga joriy etilishining noan'anaviy usullar bilan manbalarni izlash zarurati taqozo etishi boshqa narsadir. Iqtisodiy adabiyotlarda lizingning shunday ta'riflari uchraydiki, unda ijara munosabatlari bilan ayni bir vaqtda resurslarni qarzga olish manbaini jalb qilish nazarda tutiladi. Lizingning bu ta'riflarida uning mazmuniga investisiyalash uchun qo'shimcha resurs manbalarini izlaydigan ijarachi nuqtai nazaridan bir tomonlama yondashilgan. Aslida esa, lizingning iqtisodiy tabiati, bizningcha, opsionning vujudga kelishi, qarz olish munosabatlari paydo bo'lishi, qaror topishi va rivojlanishi zaruratidan kelib chiqadi.

Shunday qilib olimlar va mutaxassislar lizingning mohiyatini ta'riflash xususida hozircha bir fikrga kelganlari yo'q. Shuning natijasida nazariya hamda amaliyotda lizingning mazmuni va roli turlicha talqin etilmoqda. Ba'zi mualliflar lizingni tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning alohida va o'ziga xos usuli deb hisoblaydilar, ikkinchilari uni uzoq muddatli ijara yoki uning bir shakli deb biladilar, uchinchilari lizingni ishlab chiqarish vositalariyi yoki o'zgalar mol-mulkidan foydalanish huquqini sotib olish va sotishning pardali usuli deb hisoblaydilar, to'rtinchilari esa lizingni o'zgalar hisobidan faoliyat yuritish deb, ya'ni ishongan kishining topshiruviga binoan o'zgalar mulkidan foydalanish va uni boshqarish deb talqin qiladilar. Ayrim mutaxassislarning ta'kidlashicha, lizing — muayyan tovarga bo'lgan mulkchilik huquqini uchinchi shaxs uchun sotib olib, uni qisqa, o'rta yoki uzoq muddatli davrga ijaraga beradigan ixtisoslashgan lizing kompaniyasi vositachiligida asosiy fondlarga kapital qo'yilishini moliyalashtirishning o'ziga xos shaklidir. Lizingning bu ta'rifida, birinchidan, lizing moliyalashtirishning o'ziga xos shakli deb ta'kidlanadi. Ikkinchidan vositachi uchinchi shaxs uchun mulkchilik huquqini qo'lga kiritadi deb, uchinchidan ijara munosabatlari mavjud, deb da'vo qilinadi. Bu ta'rifda lizing qatnashchilarining funksiyalarini qo'rsatishga harakat qilingan, ya'ni mulkni qo'lga kiritishni moliyalashtirish, mulkchilik huquqiga ega bo'lish, ijaraga topshirish ekanligi sodir etilishi urinishlari ko'rsatiladi. Huquq nuqtai nazaridan olganda bu ta'rif birmuncha darajada mantiqiy bo'lsa ham, ammo uchinchi shaxs uchun ijaraga topshirish bilan birga mulkchilik huquqi hamisha ham qo'lga kiritilavermaydi. Ijara

munosabatlari vujudga kelishi va ijarachining mulkchilik huquqining qo'lga kiritish vaqti har doim ham mos kelmaydi, faqat ijara munosabatlari, egalik qilish munosabatlari va lizing mol-mulkidan foydalanish munosabatlarigina vaqt jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi mumkin. Mohiyati jihatidan qarz olish (kredit) munosabatlari ijara munosabatlaridan oldin sodir bo'ladi.

Boshqa manbalarda qayd etilishicha lizing — vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb etilgan mablag'larni investisiyaga yo'naltirishga qaratilgan alohida turdagi tadbirkorlik faoliyatidan iborat bo'lib, bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan bir shaxs shartnomada belgilangan mulkni muayyan sotuvchidan sotib olib uni haq evaziga boshqa shaxsga tadbirkorlik maqsadlarida vaqtincha foydalanish uchun berib qo'yish majburiyatini oladi.

Afsuski, yuqorida keltirilgan barcha ta'riflarda lizing munosabatlarining u yoki bu jihatigina ta'kidlanadi, ammo ularning birontasida lizingning iqtisodiy mohiyatini asil ma'noda ifodalaydigan belgilar va funksiyalar ifodalab berilmaydi. Bizning fikrimizcha, lizingning mohiyatiga chuqur kirib borib, uning to'g'ri ta'rifini berish uchun lizingning kelib chiqish tarixiga murojaat qilish, lizing munosabatlari kelib chiqishidagi moliyaviy-iqtisodiy muhitni hisobga olish, shuningdek lizing paydo bo'lgan va rivojlangan mamlakatlardagi makroiqtisodiy vaziyatni e'tiborga olish lozim. Bizningcha, lizingni ta'riflovchi mualliflarning bilim doirasi va professional maqomini ham e'tiborga olish zarur. Jumladan huquqshunoslarning o'z yondashuvi bor, iqtisodchilar boshqacha yondashishlari mumkin. Moliyachilar esa lizingni butunlay boshqacha ta'riflashlari mumkin. Bundan tashqari lizingga lizing munosabatlarining turli qatnashchilari (lizing beruvchilar, lizing oluvchilar yoki moliyaviy vositachilar) tomonidan bo'ladigan qarashlarni hisobga olish kerak.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish vositasi bo'lmish lizing raqobat natijasida paydo bo'lgan va uning muayyan afzalliklari bo'lgan. Tadbirkorlik faoliyati uchun investisiya resurslarini qidirib topish yoki mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish hamda undan foydalanish huquqini olishning boshqa usullariga nisbatan lizingning u yoki bu afzalliklari turli huquqiy va iqtisodiy makonlarda turlicha namoyon bo'ladi. Ya'ni lizing mol-mulkidan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish imkoniyatini olish vositasi sifatida lizingdan ko'riladigan manfaatlar yoki zararlar,

uning afzalliklari yoki kamchiliklari iqtisodiy, shu jumladan, huquqiy, moliya-kredit munosabatlarining darajasi bilan belgilanadi.

Xalqaro lizing bitimlari tuzilganida bu bitimlarning quch-quvvati xalqaro iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanish darajasi bilan, lizing munosabatlarida qatnashuvchi tegishli mamlakatlarning qonunchiligi bilan belgilanadi. Lizing bitimlari tuzilmog'i uchun tadbirkor tomonidan mol-mulkni qo'lga kiritish yoki unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olish variantlarini taqqoslash yo'li bilan, investisiyalashga oid tegishli qarorlar qabul qilinadi, ko'char yoki ko'chmas mulkni sotishga oid mustaqil qarorlar ham uning mulkdori (ishlab chiqaruvchisi, sotuvchisi, ijaraga beruvchisi) tomonidan qabul qilinadi. Moliyaviy kapital egasi ham, o'z navbatida, resurslarni qo'yish va diversifikasiya qilish xususida o'z qarorlarini qabul qiladi. Ayni vaqtda, har bir tomon o'z qarorlarini chamalab ko'radi, o'zaro manfaatlar mos kelgan taqdirdagina va kelgusida manfaat ko'rishiga ko'zi yetgan holatda lizing bitimini tuzishga qaror qiladi. Xullas, lizing ko'char va ko'chmas mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish va undan foydalanish huquqini olishdagi an'anaviy usullarga nisbatan muqobil yoki asosiy kapitalga resurslarni moliyalashning muqobili ekanligi ravshan bo'ladi.

Keyingi vaqtlarda xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda lizing biznesning alohida turi deb talqin qilinmoqda. Ba'zi mualliflar lizing biznesi to'g'risida mulohaza yuritib Rim huquqining mulkning mulkdori va foydalanuvchisi tushunchalarini bir-biridan farqlash to'g'risidagi klassik tamoyillarga ishora qiladilar. Ha, darhaqiqat lizing munosabatlari mol-mulkning qismlarini ikki eng muhim vakolatda bo'lish imkoniyatiga asoslanadi. Ularning birinchisi mol-mulkdan foydalanish, ya'ni undan daromad yoki boshqa manfaat olish maqsadida foydalanish bo'lsa, ikkinchisi shaxsning mulkchilik obyekti ustidan huquqiy hukmronligi tarzidagi mulkchilik huquqining o'zidir. Lizingni rivojlantirish va undan foydalanishning ko'p asrlik tajribasiga ko'ra, boylik pirovard natijada bevosita mulkka egalik qilishdan iborat emas, balki shu mol-mulkdan samarali foydalanishdan iboratdir.

Ba'zi tarjima nashrlarida lizing ijarani moliyalashtirish deb hisoblanadi va lizing usulida moliyalashtirish bankning texnika yoki mashinalarni sotib olib, ularni o'z mijozlariga ijaraga berishini nazarda tutadi deb, ta'kidlanadi. Haqiqatda esa bank

mulkchilik huquqini sotib olmaydi, balki moliyalashtiradi, to'g'rirog'i ijarachining ijara munosabatlari vositasida va lizing shartnomalarida ko'rsatilgan muddatlarda mulkni qo'lga kiritish niyatida bo'lg'usi huquqini moliyalashtiradi. Bunga qo'shimcha ravishda shuni ham ta'kidlash kerakki, lizing texnologiyalar va texnikalar sotib olish uchun kredit berishning bir shaklidir.

Ayrim iqtisodchilar, lizingni vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb etilgan moliyaviy mablag'larni investisiyalashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatining bir turi deb ta'riflaydilar. Bunday ta'riflar mualliflari haqiqatdan ham lizing biznesi tadbirkorlik faoliyatining alohida turi bo'lgan rivojlangan iqtisodiyotlardagi moliyaviy vositachilikning, shu jumladan lizing kompaniyalarini ham darajasi yuqori bo'lgan moliyaviy institutlar qudratli infratuzilmasi rivojlangan sharoitga asoslanadilar. Lizing kompaniyalarining bo'sh moliyaviy resurslarini jalb etish imkoniyatlari va ularning salmoqli o'z kapitallarining borligi bilan izohlanadi. Lizing institutlari endigina paydo bo'layotgan O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatda bozor munosabatlarining qonunchilik negizini shakllantirish bilan birga lizing ham tadbirkorlikning alohida turiga aylangani yo'q. Shu sababli, bizning nazarimizda, lizing investisiyalarni moliyalashtirish shakllari yoki usullaridan biridir, deb hisoblayotgan mualliflarning fikrini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Ba'zi bir iqtisodchilar lizingni professional kredit yoki qarzning bir xili deb hisoblaydilar. Muayyan darajada, haqiqatdan ham shunday bo'ladi, chunki lizing munosabatlarining asosini qarz olish-berish (kreditlash) munosabatlari tashkil etadi. Bizning fikrimizcha, lizing munosabatlari qarz olish-berish asosida vujudga keladigan iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning yaxlit tizimi deb qabul qilinmog'i zarur. Lizing rivojlanishining tarixidan ma'lumki, uning paydo bo'lishiga ob'yektiv sharoitlar va tegishli shartlar ko'maklashib kelgan. Bu shart-sharoitlar, bir tomondan, lizing mulkini taklif qilish, ikkinchi tomondan, unga bo'lgan talabni shakllantirish, uchinchi tomondan esa lizing munosabatlarini amalga oshirish uchun, bo'sh turgan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkonini bergan. Har qavday holatda ham lizing munosabatlari qatnashchilarning o'zaro manfaatlari bir-biriga mos tushgan taqdirdagina lizing munosabatlari vujudga kelgan. Lizingni amalga oshirish imkoniyati birinchi galda pul shaklidagi kapital mavjudligiga

bog'liq, bunda baholash, taqqoslash va chamalash natijasida kagshalni lizing bitimi bilan bog'lash haqida qaror qabul qilinadi. Lizing munosabatlari tizimi, avvalo mulkning shaklini o'zgartirilishini, mulk yetkazib berilishini moliyalashtirishni, mulk ijarasini, ehtimoli bo'lgan risklarni baholash tartibotini, shartnoma tuzilishini va lizing to'lovlari to'lanishi xususidagi munosabatlar aniqlanishini ko'zda tutadi. Lizing munosabatlari negizida lizing mulkiga bo'lgan talab va taklif yotadi. Kredit munosabatlarida bo'lgani kabi, lizing bitimlarining tuzilishini majburiy sharti sifatida lizing mulkini yetkazib beruvchilari, lizing oluvchilari (tadbirkorlar) va lizing kompaniyalarining manfaatlari mos kelishi yoki birlashuvi yotadi. Ana shunday sharoitdagina to'la qimmatga ega bo'lgan lizing munosabatlari paydo bo'lishi mumkin. Lizing munosabatlari tegishli muhit yaratilgan taqdirdagina vujudga kela oladi. Mazkur tegishli muhit mol-mulkni lizingga berish to'g'risidagi ko'pdan-ko'p takliflarni nazarda tutadi, mazkur mol-mulkka bo'lgan doimiy talabni va shunday munosabatlar kelib chiqishidan manfaatdor bo'lgan muayyan infratuzilmada bo'sh turgan moliyaviy resurslar mavjudligini, shuningdek tegishli investisiya-moliya mexanizmini qamrab oladi. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmui sifatida lizing qarz olish, oldi-sotdi, ijara, tovar bilan kreditlash yoki investisiyalash, mulkiy kafolat, lizing to'lovlarini amalga oshirish, lizing mulkini sug'urtalash, soliqlar to'lash, mulqdan foydalanish, lizing mulkini sotib olish, lizing obyektni yetkazib berish va qabul qilish, shuningdek, uni ishlatish jarayonlaridagi munosabatlarni qamrab oladi. Nihoyat, lizing munosabatlari qarz olish, kredit munosabatlari, mulkchilik munosabatlari, ijara munosabatlari, mulkga egalik qilish va undan foydalanish huquqlari va bular bilan bir qotorda makon va zamonda taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlari yig'indisini aks ettiradi. Shu munosabat bilan kredit, ya'ni bir tomondan qarz olish va ikkinchi tomondan investisiyalash sohasidagi iqtisodiy munosabatlar lizingning asosini, uning iqtisodiy tabiatini belgilaydi. Kredit munosabatlari lizing munosabatlari negizini tashkil etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, lizing mulki taklifi mavjudligidan va lizing krediti shaklida berilishi mumkin bo'lgan pul kapitali mavjudligidan qat'iy nazar, agar lizing mulkiga talab bo'lmasa, lizing kreditiga talab ham bo'lmas edi. Lizing (kredit) munosabatlari zaminida investisiya munosabatlari kelib chiqadi. Shundan keyin esa huquqiy-mulkiy munosabatlar, mulkchilik munosabatlari, egalik qilish munosabatlari, foydalanish

munosabatlari, ijara munosabatlari va ular asosida qayta taqsimlash va huquqiy munosabatlar kelib chiqadi. Lizing bitimi qatnashchilari o'rtasidagi taqsimot munosabatlari, ya'ni keng ma'nodagi moliyaviy munosabatlar, shu jumladan kredit munosabatlari lizingning iqtisodiy tabiatini tashkil qiladi. So'ngra, makon va zamonda taqsimot munosabatlari (kredit munosabatlari) negizida lizing mol-mulkiga mulkdorlik, egalik qilish va undan foydalanish munosabatlari, lizingga asoslangan ijara munosabatlari hamda huquqiy munosabatlar paydo bo'ladi.

Shunday qilib, ayrim iqtisodchilar lizingni uzoq muddatli ijara shakli deb va investisiya resurslarini shakllantirishning qarz manbalaridan biri deb hisoblaydilar. Boshqalar esa, uni ijara deb yoki ijara to'g'risidagi kengaytirilgan shartnoma deb biladi. Uchinchilari lizingni mulkiy munosabatlar majmuasi deb ko'rsatadi. Lizingni kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishning maxsus shakli deb hisoblaydigan ta'riflar ham mavjud. Shu bilan birga lizingni tadbirkorlik faoliyatining alohida turi deb tushuntiruvchi fikrlar ham uchrab turadi.

Lizing munosabatlari, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, bizning nazarimizda, avvalo qarz olish munosabatlarini, lizing beruvchi bilan, mulk yetkazib beruvchi bilan, davlat bilan, milliy iqtisodiyotning norezidentlari (xorijiy davlatlar, xalqaro moliya institutlari, chet el investorlari va boshqalar) bilan mulkiy, huquqiy, taqsimot va boshqa uyg'unlashgan munosabatlarini ifodalaydi. Ular lizing beruvchilar, hamkorlar, muassislari va boshqalar bilan ko'shma faoliyat munosabatlarini ifodalashi mumkin. Lizing munosabatlari mulkning o'zgarib, rivojlanib borishini va mulkning xususiylashuvini aks ettirishi mumkin. Har qanday holatda ham lizing munosabatlari, o'z mazmuniga ko'ra makon va zamonda qarz olish munosabatlarini, ya'ni taqsimot munosabatlarini, mulkiy munosabatlarini, lizing obyektiga egalik qilish huquqi va undan foydalanish huquqlarini ifodalaydi va o'z navbatida qayta taqsimot munosabatlarini shakllantiradi. Xullas, bizning nazarimizda, lizing alohida turdagi mulkiy va huquqiy munosabatlar majmuasini vujudga keltiradigan alohida kredit va ijara munosabatlari vositasida kapitalning pul va buyum shaklida taqsimlanishi sohasidagi iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat. Lizing milliy iqtisodiyot va millatlararo iqtisodiyotlar

doirasidagi ijara vositasida moliyaviy resurslarni makon va zamonda taqsimlash hamda qayta taqsimlashdagi mulkiy munosabatlar majmuasidir.

Shakl jihatidan lizing munosabatlari lizing mol-mulkini to'liq yoki qisman qo'lga kiritishni, kredit berishni yangi xo'jalik xodimi-tadbirkor paydo bo'lganligini aks ettiradi. Mohiyat e'tibori jihatidan lizing tadbirkorlik mulkiy munosabatlarini amalga oshirish uslubi va tashkil etish shaklini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda lizing vositasida va shu borada vujudga keladigan munosabatlar vositasida kredit munosabatlari, mulkiy munosabatlar va tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida" gi qonunida lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdin (sotuvchidan) haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan shartlarda berib qo'yish maqsadida mol-mulkni (lizing obyektini) oladi, deb belgilangan. Bu ta'rif, bizning nazarimizda unchalik to'g'ri emas, chunki u lizingning iqtisodiy tabiati, mohiyati va funksiyalarini ochib bermaydi. Lizingning iqtisodiy tabiati va mazmuni yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, lizing vositasida milliy hamda millatlararo iqtisodiyotlarda taqsimot munosabatlari va moliyaviy vositachilik; tadbirkorlik samaradorligini oshirishga qaratilgan oqilona kredit munosabatlari; lizing krediti vositasida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini jadal joriy etishga qaratilgan alohida ijara munosabatlari; mol-mulkni shakllantirishga va ayni vaqtda undan foydalanishni yaxshilashga qaratilgan mulkiy munosabatlar; xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy kapitalga investisiya solish usullari; «nou-xau» dan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha baynalminal kapital munosabatlari va shu kabilar amalga oshiriladi. Mamlakatimizdagi ko'pgina iqtisodchilar lizingni investisiyalarni moliyalashtirishning qo'shimcha vositasi deb hisoblaydilar. Bozor munosabatlariga o'tish davrida lizing tadbirkorlikni rivojlantirishni qudratli quroli bo'ladi. Pul va tovar shaklqsagi kapitalni o'zaro manfaatli tarzda taqsimlash va jonlashtirish hamda tadbirkorlik kapitalini ishlab chiqarishga jalb qilish orqali qiymatni saqlab qolishdan tashqari uning kapitallashuviga ham erishish mumkin. Tadbirkorlik tuzilmalarida moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda lizing an'anaviy moliyalash usullari o'mini bosadigan muqobil investisiyalash usuliga aylanadi. Kreditlashdan farqli ularoq, lizing munosabatlari sharoitida egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqi mulqdorlik huquqidan

farqlanadi. Agar lizing oluvchi mazkur mol-mulkning sotuvchisini o'zi tanlaydigan bo'lsa, uning bir o'zi qarz oluvchi, ijarachi va xaridor rolini bajaradi. Kreditlash sharoitida qarz beruvchining investisiyalari o'z risklariga ega bo'lgan bank krediti hisobidan amalga oshiriladi, lizing sharoitida esa, investisiyalar lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladi, qarz oluvchi esa foizlar va amortizasiya ajratmalari (vositachilik haqi, qo'shilgan qiymat solig'i, lizing beruvchining qo'shimcha xizmatlari) tarzidagi joriy chiqimlarni bo'yniga oladi. Kreditlash sharoitida kreditni qoplash pul shaklida amalga oshiriladi, lizing sharoitida bu ish kompensasiya xizmatlari ko'rsatish, mahsulot berish tarzida amalga oshirilishi mumkin. Kreditlash qoplanish manbalari jihatidan ham lizingdan farq qiladi. Kredit munosabatlaridan farqli o'laroq lizing sharoitida uning qatnashchilari o'rtasida boshqa huquqiy munosabatlar kelib chiqishi mumkin. Lizing munosabatlari o'zining risklari tarkibi va yig'indisi bilan ham kredit munosabatlaridan farq qiladi. Lizing munosabatlari sharoitida risklarining tarkibi va yig'indisi kredit munosabatlari sharoitidagi risklari tarkibidagi yig'indisiga nisbatan torayadi.

Lizing munosabatlari xodimlarni yollashdan ham farq qiladi. Yollashda faqat mehnatdan foydalanish munosabatlari vujudga kelsa, lizingda mol-mulkdan foydalanish, unga egalik qilish, uni qisman tasarruf etish sodir bo'ladi. Lizing o'z obyektlari jihatidan yollashdan farq qiladi, xodim, uning qobiliyati yollash obyekti bo'lsa, lizingda ko'char va ko'chmas mulk obyekti bo'ladi. Yollashda mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solish ko'zda tutiladi, lizingda esa mulkiy, kredit, ijara va tijorat huquqi munosabatlari amalga oshiriladi. Tadbirkorlik faoliyatini ko'zda tutuvchi lizing munosabatlari tashkiliy shakli jihatidan ham xodim yollashdan farq qiladi, chunki xodim yollashning tashkiliy shakli faqat yollanma mehnatdir.

O'zbekiston qonunlariga ko'ra, lizing bitimlarida uchdan ortiq taraf qatnashishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, lizing munosabatlari shu munosabatlarda qatnashuvchilardan har biriga o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish imkonini beradigan o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlardir. Asbob-texnikalarni ishlab chiqaruvchi yoki yetkazib beruvchi mol-mulkini sotadi, lizing kompaniyasi kredit munosabatlarini amalga oshiradi, lizing oluvchi esa ijara asosida tadbirkorlik faoliyatini yuritadi. Lizing

munosabatlari vositasida muayyan darajada, lizing mol-mulkini yetkazib beruvchi, lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida risklar taqsimlanadi, shu qatnashchilardan har birining xavfsizligi ta'minlanadi, ularning faoliyatidagi nomuayyanlik bartaraf etiladi. Ikkinchi tomondan, lizing munosabatlari tadbirkorlik shakllaridan birini aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda lizing munosabatlari ijara munosabatlarini o'z ichiga oladi, ammo o'zining shakli jihatidan ham, mazmuni jihatidan ham ijaradan farq qiladi.

Xullas, o'zining iqtisodiy mazmuniga ko'ra, lizing munosabatlari qarz olish asosidagi ijara munosabatlarining alohida toifasida ifodalanuvchi o'zaro bog'liq iqtisodiy-huquqiy, shu jumladan moliyaviy-kredit munosabatlari majmuasidan iborat. Ular lizing beruvchi, mol-mulk yetkazuvchi, davlat, hamkorlar, muassislar o'rtasidagi mulkchilik munosabatlarini aks ettiradi va pirovard natijada mulkning ko'payib rivojlanishini va mulkdorlar tarkibi o'zgarishini ta'minlaydi.

Lizing munosabatlarining namoyon bo'lishi shakllari, avvalo qarz berish (kreditlash), investipiyalash munosabatlaridan; mulkchilik munosabatlari (lizing oluvchining topshirig'iga binoan mol-mulk sotib olish va uni ijaraga topshirishdan; mulkiy munosabatlar (mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf etish huquqini (mulkchilik huquqidan ajratishdan), huquqiy munosabatlar (lizing qatnashchilarining o'zaro mas'uliyati munosabatlari) dan; lizing oqibatidagi taqsimot munosabatlari (taqsimlash, lizing to'lovlarini to'lash, mol-mulkni qo'lga kiritish munosabatlari) dan; lizing mohiyatidan kelib chiqadigan ijara munosabatlari (mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf etish va lizing beruvchi oldidagi majburiyatlar) dan iborat. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib nazarimizda, quyidagilarni ta'kidlamok kerak: lizing oluvchi nuqtai nazaridan lizing munosabatlari qarz olish (mol-mulkdan foydalanish, unga egalik qilish, uni tasarruf etish huquqini qo'lga kiritish) munosabatlarini ifodalaydi, lizing mol-mulkini ishlab chiqaruvchi uchun uning manfaatlari raqobat muhitida sotilishini va lizing beruvchi nuqtai nazaridan investisiyalarni mol-mulkni sotib olib, so'ngra uni ijaraga topshirish bilan bog'lash to'g'risida investision qarorlar qabul qilinishini bildiradi. Shunday qilib lizing munosabatlari qarz olish, investisiyalash, mol-mulkni sotib olib, uni tadbirkorlik

maqsadlari uchun alohida ijaraga topshirish sohasidagi munosabatlarning o'zaro bog'langan majmuasini aks ettiradi.

2.3. Lizing xizmatlarining mazmuni, asosiy belgilari va afzalliklari

Mol-mulkni qo'lga kiritish, unga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish sohasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarning yig'indisi bo'lmish lizingning mazmunini tadqiq etishga kirishganda shuni ta'kidlash kerakki, u pul va tovar shaklida ro'yobga chiqadigan moliyaviy, shu jumladan, kredit munosabatlariga asoslanuvchi mulkiy munosabatlarning yig'indisidir. Lizing korxonalarnish asosiy kapitaliga safarbar etiladigan investisiyalarni moliyalashtirishning noan'anaviy usuli bo'lib, an'anaviy bank krediti evaziga mablag' ajratish yoki bevosita investisiyalarni moliyalashtirish usullariga nisbatan aniq - ravshan ustunliklarga egadir. Lizing munosabatlarning asosini moliyaviy munosabatlar, shu jumladan kredit va ijara munosabatlari yig'indisi tashkil etadi, shular yordamida zamon va hudud makonida kapitalning haqiqiy qiymatini saqlash yoki ko'paytirish maqsadida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash jarayoni sodir bo'ladi. Asbob-uskunalarining ishlab chiqaruvchilari o'z mahsulotlarini lizing bitimi asosida sotish orqali ularning sotilmay qolish va foydani yo'qotish risklaridan qutiladi. Lizing kompaniyasi esa, o'z navbatida kapitalning haqiqiy qiymatini saqlab qolish va uni kapitallashtirish maqsadida o'z mablag'ini investisiyalaydi. Lizing oluvchi esa, o'z mablag'larini mutlaqo sarflamay turib, mol-mulkni qo'lga kiritish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Ayni bir vaqtda lizing oluvchi tadbirkorlik faoliyatini yuritish va lizing mol-mulkini ishlatish orqali foyda olish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Shu tariqa lizing munosabatlari yordamida, moddiy va moliviy resurslarni qayta taqsimlash asosida lizing bitimi qatnashchilarning barcha manfaatlarini mos kelgan holda yuzaga chiqishi ta'minlanadi. Bir paytning o'zida, kapital va foydani yo'qotish risklarini lizing bitimi ishtirokchilari o'rtasida bir tekis taqsimlanishi amalga oshiriladi.

Lizing munosabatlari bir qancha alohida belgilarga ega bo'lib, lizing bitimi barcha qatnashchilarning yuqorida ko'rsatilgan afzalliklarga erishishlariga imkon beradi. Bularning eng muhimlari quyidagilardan iboratdir: ijara vositasida kapitalga ega bo'lish; risksiz kapital investisiyalarni amalga oshirish; o'zga mulkni samarali yollash; lizing obyektni sotish; mol-mulkka manfaatli tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish; kam mablag' yoki mablag'siz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish; lizing mulkidan samarali foydalanish; muayyan zamon va makonda hamda iqtisod sohiblari orasida resurslarni taqsimlash; raqobatda manevr qilish; faoliyatning kapital sig'imini pasaytirish; mulkdorlik va lizing mol - mulkidan foydalanuvchi huquqlarini ajratish. Bularning barchasi oqibatda biznesning samarali bo'lishiga qaratiladi.


Lizingning yuqorida qayd etilgan afzalliklari unda qator muhim funksiyalar mujassamlashganligi haqida xulosa chiqarishga asos beradi.

Lizing moliyaviy, ishlab chiqarish, sotish, ta'minlash, innovasiya, investisiyalash, tadbirkorlik, imtiyoz yaratish, ijaraga berish va olish, safarbar qilishlik, sug'urtaviy, takror ishlab chiqarish va boshqa funksiyalarni bajaradi. Lizingning asosiy funksiyalarini quyidagi chizma tarzida ko'rsatish mumkin.

Lizing obyektlarining to'g'ri talqin etilishi lizing munosabatlari haqiqiy mazmunini ochib berishning muhim jihatidir.

2.3.1- chizma.

Lizingning asosiy funksiyalari




Takror ishlab chiqarish

Chet ellar va mamlakatimizdagi adabiyotlarda ta'kidlanishicha, aniq vaziyatlarga qarab, amaldagi tasnifga ko'ra bozorda bemalol olish sotish ta'qiqlangan mol-mulqdan tashqari, asosiy vositalar jumlasiga kiradigan har qanday ko'char va ko'chmas mol-mulk lizing obyekti bo'lishi mumkin. O'zbekiston qonunlariga binoan, tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan, iste'mol qilinmaydigan har qanday ashyolar, shu jumladan, korxonalar, mulk majmualari, binolar, inshootlar, texnikalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda, lizing keng ommalashgan deyarli barcha mamlakatlarning qonun hujjatlarida lizing obyektlari tarkibiga bir qancha cheklashlar joriy etilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida" gi qonunida yer uchastkalari va boshqa tabiat obyektlari, shuningdek erkin muomalada bo'lishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan yoki muomalada bo'lishining alohida tartibi belgilangan mol-mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga amaldagi "Lizing to'g'risida"gi qonunda alohida muomala tartibiga ega bo'lgan mol-mulk ro'yxati berilmagan, bu esa amaldagi qonunga tegishli qo'shimcha kiritishni talab qiladi.

Lizing obyektlarini turli belgilari asosida tasniflash mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi qonuniga binoan lizing obyektlarining tasnifini quyidagi tarzda ifodalash mumkin .

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanmaydigan qo'char va ko'chmas mulk lizing obyektlari bo'lishi mumkin emas. Faqat iste'mol qilinmaydigan va tadbirkorlik maqsadlarida ishlatiladigan ashyolar lizing obyektlari bo'lishi mumkin. Yer uchastkalari, foydali qazilmalar, tabiiy boyliklar, qurol-yarog' va o'q-dorilar, atom va gidroelektr stansiyalar hamda qonun hujjatlarida erkin muomalada bo'lishi taqiqlangan yoki alohida muomala tartibi belgilashni talab qiladigan iste'mol qilinmaydigan ashyolar lizing obyektlari jumlasiga kirmaydi.

Mol-mulk turlari bo'yicha lizing obyektlari tasnifi

G'arb mamlakatlarida lizing xizmatlari bozori lizing shartnomalarining shakl va modellari xilma-xilligi bilan va lizing operatsiyalarini tartibga soluvchi turli yuridik normalari bilan ajralib turadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida lizing xizmatlarining ilmiy asoslangan tasniflanishi shu shakllardan har birining vazifasi va muhim tafovutlarini hamda ularning o'rnini to'g'ri tushinishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining 1999 yilda qabul etilgan "Lizing to'g'risida"gi qonunida lizingning ikki turi: moliyaviy va tezkor turlari belgilangan. "Lizing to'g'risida"gi qonunda moliyaviy va operativ lizingdan tashqari qo'shimcha lizing alohida ko'rsatilgan, shunga muvofiq lizing oluvchi lizing beruvchining yozma roziligi bilan lizing obyektini vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish uchun uchinchi shaxsga topshirishga haqli. 2002 yil 13 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasini ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga binoan "Lizing to'g'risida"gi qonunda lizingning moliyaviy turi qoldiriddi.

Jahon amaliyotini va mavjud tasniflarni e'tiborga olib, bizningcha, lizingning mavjud turlarini quyidagi mezonlarga binoan tasniflash maqsadga muvofiqdir. Lizing o'zining bir qator foydali jihatlari bilan takror ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy unsurlariga, shu jumladan mehnat vositalari, jonli mehnat, texnikadan foydalanish darajasi va shu kabilarga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Amalda lizingning samarasi fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan chaqqon foydalanishning obyektiv afzalliklaridan, xo'jalik faoliyati miqyoslari oshib borishidan, sarf-xarajatlar kamayishidan va butun ishlab chiqarish jarayoni jadallashuvidan hosil bo'ladi.

Agar lizing faoliyati tadbirkorlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini yaxshilasa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitni ta'minlansa; bozorni zarur tovarlar bilan to'ldirsa va tovar ishlab chiqarish miqyosini ko'paytirish orqali byudjet tushumlarni oshirsa, bu faoliyat samarali hisoblanadi. Lizingning bir qator afzalliklari bor, unga quyidagilarni kiritish mumkin: tezkor lizingning soddaligi va qulayligi; lizing shartnomasini bekor qilish va lizing mol-mulki barvaqt ma'naviy eskirish riskini o'tkazish mumkinligi; lizing mol-mulkiga mustaqil xizmat ko'rsatish imkoniyatini olish; qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirishga nisbatan chiqimlarning birmuncha pastroq darajasi; ko'pgina mamlakatlarda lizint beruvchilar va lizing oluvchilar uchun yaratiladigan soliq qalqonidan foydalanish mumkinligi; muqobil minimal soliqdan bo'yin tovlash mumkinligi (hisobotda amortizasiyani hisoblab yozishning to'g'ri chiziqli usulidan foydalanib, aslida jadal amortizasiyani hisoblab yozish).

Lizing munosabatlarini yo'lga qo'yish va keng miqyosda rivojlantirish tadbirkorlikni avj oldirish uchun katta imkoniyatlar ochadi, chunki lizing o'z zaminidagi afzalliklar tufayli lizing bitimining har bir qatnashchisi uchun manfaat keltirishi kerak. Chunonchi, lizing mulkini ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) undan foydalanib, avvalo mashina va uskuna sotiladigan qo'shimcha imkoniyatni topadi va shu tufayli mahsulot sotish hajmi kengayib boradi. Lizing lizing beruvchiga ham bir qator afzalliklar in'om etadi, chunki u investisiya faoliyatining samarali usuli bo'lib lizing beruvchining o'z kapitali samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Lizing beruvchi uchun lizing operasiyalarining strategik ustunliklari

Strategik ustunliklar	Mazkur ustunliklarni ta'minlaydigan omillar
Kreditor ximoya darajasining oshishi	Bitishuv lizing obyektining o'zi bilan ta'minlanadi (kafolatlanadi). Foydalanuvchi bankrot bo'lgan taqdirda lizing objekti mulkdorga qaytariladi. Lizing beruvchi tomonidan to'lanmagan taqdirda lizing objekti talab qilib olinishi va zararni qoplash uchun sotilishi mumkin.
Soliq sohasidagi imtiyozlar, lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi	Lizing oluvchi hisobidan soliq imtiyozlari olish imkonini beradi va soliq shartlari turlicha bo'lgan taqdirda lizing beruvchiga lizing bitimidan qo'shimcha manfaatni ta'minlaydi.
Ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi va diversifikasiya qilinishi	Lizing munosabatlari soxasiga yangi subyektlar jalb etiladi va shu tariqa tovar ishlab chiqaruvchilar uchun sotish bozori kengayadi. Texnikaga to'lov qobiliyatli talab qullab-quvvatlanadi, yangi mahsulot ishlab chiqarish miqyosi va sifati kengayishi uchun imkoniyat vujudga keladi.
Davlat manfaatlarining ro'yobga chiqishi	Ishlab chiqarishni texnika va texnologiya bilan qayta qurollantirish jadallashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investisiyalar jalb etiladi. Tadbirkorlik faollashuvi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish kengayishi hisobiga byudjetga soliq tushumlari ko'payadi. Xalqaro valyuta fondi lizing bitishuvlari summasini milliy qarzda hisobga olmaydi. Yangi ish joylari vujudga keladi va aholining turmush darajasi ko'tariladi. Ichki iste'mol bozori yangi tovar va mahsulotlar bilan to'ladi.
Lizing beruvchilar-ning moliyaviy barqarorligi oshishi	Investisiya xarajatlari va daromadlari bab-baravar namoyon bo'ladi.
Moliyaviy leverij (vosita)ning samarasi	Lizing beruvchilar uchun lizing obyektidan har yilgi moliyaviy manfaatlar, odatda, kredit bo'yicha foizlardan yuqori bo'ladi.

Lizing oluvchi uchun lizing tabirkorlik faoliyatini amalga oshirish, uning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ishlab chiqarish-texnik salohiyatni oshirish uchun investisiyalarni moliyalashtirishning muqobil usuli bo'ladi .

2.3.2-jadval.

Lizing oluvchi uchun lizing operatsiyalarining strategik ustunliklari

Ustunliklar	Mazkur ustunlikdarni ta'minlaydigan omillar
O'zining ilk kapitaliga ehtiyojning pasayishi	Avvaliga bitishuv to'la-to'kis lizing beruvchi tomonidan moliyalanadi. Zarur asbob-uskuna haqini bir yo'la to'lash talab qilinmaydi, bu esa foydalanuvchining likvid mablag'ini ozod qiladi va uning ishlab chiqarishni kengaytirish uchun potensial aylanma kapitalini ko'paytiradi.
To'lovlar tizimining moslashuvchanligi	Birinchi to'lov muddatini uzaytirish, bo'lak va boshqa shakldagi to'lovlarni asta-sekin ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin. Lizinga olingan asbob-uskunada ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar shaklida foydadan to'lovlarni amalga oshirish mumkin.
Transaksiyalardagi tejash.	Lizing beruvchidan mol-mulkni sotib olish, saqlash, tugatish va sotishdaga sermehnat operatsiyalarga ehtiyoj bo'lmasligi hisobiga ma'muriy chiqimlar kamayadi.
Soliq imtiyozlari, lizingning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi.	Ko'pchilik mamlakatlarda lizing oluvchilar uchun lizing to'lovlarini so'ndirish davrida soliq sohasida qo'shimcha imtiyozlar beriladi.
Asbob-uskunaning ma'naviy eskirishi munosabati bilan tovar ishlab chiqaruvchi uchun risklar kamayishi	Asbob-uskunaning ma'naviy va jismoniy eskirishi riski lizing beruvchiga o'tadi. Foydalanuvchi yangi asbob-uskunani ijaraga olishi mumkin (revolver lizing).
Lizing oluvchining ilmiy ishlab chiqarish salohiyatining ortishi	Lizingda bir xil ilk kapital foizli kreditni xarid qilgandan ko'ra ancha ko'proq ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solish imkonini beradi.

2.3.2-jadval davomi.

Tadbirkorning iqtisodiy erkinligi kengayishi	Lizing obyektini sotib olish, shartnoma muddatini uzaytirish va yangi zamonaviy asbob-uskuna xarid qilish yo'llaridan birini tanlash.
	Lizing obyekti lizing beruvchining mulki bo'lib, uning balansida hisobda turadi va unga amortizasiya ajratmalari hisoblab yoziladi.
	Moliyalashning odatdagi manbalari (banklar, yetkazib beruvchilar va boshqalar)ga qaramlik kamayadi. Lizing obyektidan foydalanuvchi soliqqa tortilmaydi. Lizing shartnomasini olish ssuda olishdan ko'ra osonroq va manfaatliroq Barqaror to'lovlar inflyasiyaning ta'sirini va uzoq muddatli ssudalar bo'yicha bank foizlari o'sishini pasaytiradi. Leverijning yuqoriroq darajasini ta'minlaydi.
	Talab yetarli bo'lmagan taqdirda ijaraga olingan mulkni lizing beruvchiga qaytarish mumkin.
Tovar ishlab chiqaruvchining buxgal-teriya hisob-kitobini makbullashtirish sohasida kuradigan manfaati.	Ishlab chiqarishni yanada zamonaviy asbob-uskuna bilan qurollantirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi.
Lizing oluvchining moliyaviy manfaatlari	Eskirgan asbob-uskunani operativ yangilash va ishlab chiqarishni texnika bilan qayta qurollantirish imkoniyati kengayadi. Soliq solinadigan foyda hajmi kamayadi. Fan-texnika taraqqiyoti jadallashadi.
Lizing obyektining yangi turlarini o'zlash-tirishda risklarning kamayishi.	

Manba: Fozibekov D.F. va bosh. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2004.

Lizing munosabatlarining barcha qatnashchilari uchun lizingning yuqorida ko'rsatilgan ustunliklari muvofaqiyatli amalga oshirishni, avvalo ular faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiy muhit bilan belgilanadi. Mamlakat qonunchiligi, shu jumladan, soliqqa oid qonun hujjatlari lizingning potensial ustunliklarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Xalqaro lizingda qatnashuvchilar uchun ustunliklar lizing shartnomasida

qatnashuvchi mamlakatlarning qonunchiligi bilan belgilanadi. Lizingni baholashda amaldagi soliq qonunlarini hisobga olib risklar va manfaatlarning hisob-kitobi muhimdir. Lizing beruvchi lizing oluvchiga qarz berganida ancha yuqori darajadagi riskni zimmaga olganligi sababli yuqoriroq diskont stavkasiga loyiq bo'ladi. Shu sababli lizing shartnomasini baholaganda lizing krediti yuzasidan qilingan sof chiqimlarni belgilash bosh masaladir, bu chiqimlar esa diskont stavkalarini hisobga olib belgilanadi. Lizing beruvchi va lizing oluvchida lizingni baholash me'zonlari bir-biriga mutlaqo ziddir. Lizingning afzalligini belgilashda xilma-xil omillar shart qilib qo'yiladi. Lizing beruvchi bilan lizing oluvchi bitta soliq tokchasida ekanligi aniqlansa, ikkalasi ham bir xil pul mablaglari oqimini oladi, ammo bunda muqobil belgilar mavjud bo'ladi, ya'ni lizing beruvchi faqat lizing oluvchi hisobiga ko'proq manfaat ko'rishi mumkin va aksincha. Basharti lizing oluvchining soliq stavkasi lizing beruvchining soliq stavkasidan kamroq bo'lsa bu holda ikkovlari ham to'lanmagan soliq hisobidan manfaat ko'radi. Soliq qonunchiligining, bank krediti uchun foiz stavkalarining tayinli emasligi lizingning xaqiqiy ustunliklarini aniqlash imkoniyatini qiyinlashtiradi.

3. Xo'jalik moliyaviy holatining tahlili

3.1. Buxgalteriya balansi asosida xo'jalik mablag'lari va ularning manbalari tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlili

Respublikamizda iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida tashkil topishi korxonalar faoliyati tahlilining ahamiyatini yanada oshiradi, chunki u ushbu sharoitda faoliyatga joriy etilmagan ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni o'z vaqtida aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Foydalanilmagan resurslarni aniqlab, ulardan samarali foydalanish korxonalar iqtisodiyotini, qolaversa milliy iqtisodiyotni mustahkamlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun har bir talaba ishlab chiqarish faoliyatining tahlili bilan bir qatorda moliyaviy faoliyatning tahlilini ham amalga oshirish yo'llarini chuqur o'zlashtirib olishi zarur, chunki ular kelajakda qishloq xo'jalik korxonalari va tashkilotlari hamda mamlakat iqtisodiyoti ravnaqi yo'lida mutaxassis bo'lib xizmat qiladilar.

Korxonaning moliyaviy holati va moliyaviy natijalarini moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya hisobi va boshqa axborotlarning ma'lumotlari asosida o'rganib, mavjud moliyaviy imkoniyatlarni aniqlash va moliyaviy holatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish usuli moliyaviy tahlil deb ataladi.

Moliyaviy tahlilning asosiy qismi bo'lib korxonalar moliyaviy xolatining tahlili hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy xolati uning moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, to'lovga qodirligi, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlari xolati kabi jihatlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi. Ushbu ko'rsatkichlar darajasini o'rganish va tahlil etish hamda ularning natijalarini umumlashtirish orqali korxonaning moliyaviy holatiga baho beriladi. Shuning uchun ham ushbu ko'rsatkichlarni o'z vaqtida tahlil qilib turish – korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilash hamda iqtisodiyotni mustahkamlash uchun shart sharoit yaratadi. Shu nuqtai nazardan tahlilning ahamiyati nixoyatda katta va beqiyosdir. Tahlil -korxonaning moliyaviy axvolini yaxshilash garovidir.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi bo'lib, korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlarini, moliyaviy barqarorlik darajasini, to'lovga qodirlik ahvolini, o'z

va qarz mablag'lari bilan ta'minlanish darajasini, moliyaviy mustaqillik ahvolini, debitorlik va kreditorlik qarzlarining muayyan davrga bo'lgan holatini o'rganish asosida korxona moliyaviy holatiga baho berish va uni yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatish hisoblanadi.

Buxgalteriya balansi korxona mulki, kapitali va majburiyatlari xajmini ma'lum sanaga aks ettiruvchi maxsus jadvaldir. U ikki qismdan iborat bo'lib, uning aktiv qismida korxonaning asosiy va aylanma mablag'lari (mulki), passiv qismida kapitali va majburiyatlari aks ettiriladi. Balans aktiv va passiv tomonlari o'zaro teng bo'ladi.

Buxgalteriya balansi o'z navbatida balans-brutto va balans-netto tulariga bo'linadi. Xo'jalik mablag'larini boshlang'ich qiymati bo'yicha o'zida aks ettiruvchi balans, brutto deb ataladi. Xo'jalik mablag'larni haqiqiy (qoldiq) qiymati bo'yicha aks ettiruvchi balans, balans, balans - netto deyiladi. Xo'jalik mablag'larining boshlang'ich qiymatidan ularning eskirish summasini chegirib tashlash orqali haqiqiy qiymati aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlar buxgalteriya balansi – netto moddalar asosida aniqlanadi va taxlil qilinadi. Buxgalteriya balansi aktivdagi moddalar Mablag'larni pul shakliga aylanish tezligi (likvitlik darajasi) belgisi bo'yicha, passivdagi moddalar esa «Majburiyatlarning to'lov muddati darajasi» belgisi bo'yicha maxsus guruxlarga bo'lib o'rganiladi. Buni quydagi balans shaklidan ko'rish mumkin.

Buxgalteriya balansi asosida birinchi navbatda korxonaning umumiy moliyaviy xolatiga baho beriladi. Buning uchun korxonaning mulki(aktivlari), kapitali va majburiyatlari (passivlari)ni tarkibi va tarkibiy tuzilish hamda ularning o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlilda gorizontal va vertikal usullaridan foydalaniladi. Tahlilda korxona aktivlari va passivlari, ulardagi umumiy va tarkibiy o'zgarishlar balansning har qaysi tomoni bo'yicha alohida o'rganiladi.

3.1.1-jadval

Buxgalteriya balansi, 2012 yil

Aktiv mulkning guruxlari	Yil boshiga	Yil oxiriga	Passiv mulk manbalari-ning guruxlari	Yil boshiga	Yil oxiriga
1.Uzoq muddatli aktivlar (U)	28776,0	26020,7	1.O'z mablag'larining manbalari(O')	45076,0	49800,7
2.Joriy aktivlar	52486,6	50463,6	2.Majburiyatlar:	36186,6	26683,6
2.1.Tovar moddiy zaxiralar (Z)	22375,2	23404,7	2.1.Uzoq muddatli majburiyatlar(Q)	0	0
2.2.Debitorlik qarzlari (D)	28395,5	27058,9	2.2.Qisqa muddatli qarzlari va kreditlar (B)	2780,0	0
2.3.Pul mablag'lari (P)	1715,9	0	2.3.Kreditorlik qarzlari (K)	33406,6	26683,6
Balans:	81262,6	76484,3	Balans:	81262,6	76484,3

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashinasi" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Gorizontal tahlil usuli yordamida aktivning har bir bo'limi va xar bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga passivning xam xar bir bo'limi va xar bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga solishtirib, mutloq va nisbiy o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. Balans aktivi va passivi bo'yicha moliyaviy xolatning tarkibini taxlil qilish bilan birgalikda ularning tarkibiy to'zilishi xam o'rganiladi. Buning uchun avvalo xar bir bo'lim va moddalarning balans jamiga nisbatan salmog'i aniqlanadi. So'ngra yil oxiridagi salmog'ini yil boshidagi salmog'iga qiyoslab, tarkibiy tuzilishining o'zgarishi aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Endi, fermer xo'jalikning umumiy moliyaviy xolatining tahlilini ko'rib chiqamiz.

3.1.2. -jadval

Korxona mulki, kapitali va majburiyatlari dinamikasining tahlili, 2012yil

Korxona aktivlari (mulki)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+ ; -)	Korxona passivlari (kapital, majburiyatlari)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+ ; -)
1.Uzoq muddatli aktivlar	28776,0	26020,7	-2755,3	1.O'z mablag'la-ri manbalari	45076,0	49800,7	+4724,7
2.Joriy aktivlar jami	52486,6	50463,6	-2023	2.Majburiyatlar jami	36186,6	26683,6	-9503
2.1.Tovar moddiy zaxiralar	22375,2	23404,7	+1029,5	2.1.Uzoq muddatli majburiyatlar	0	0	0
2.2.Debitorlik qarzlari	28395,5	27058,9	-1336,6	2.2.Qisqa muddatli qarzlari va kreditlar	2780,0	0	-2780,0
2.3.Pul mablag'lar	1715,9	0	-1715,9	2.3.Kreditorlik qarzlari	33406,6	26683,6	-6723
Balans	81262,6	76484,3	-4778,3	Balans	81262,6	76484,3	-4778,3

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari.

3.1.2.-jadvaldan ko'rinib turibdiki, korxona mulki yining oxirida shu yilning boshiga nisbatan 4778,3 ming so'mga yoki 5.9 %ga kamaygan. Shu jumladan uzoq muddatli aktivlar 2755,3 ming so'mga (9,6% ga) kamaygan, joriy aktivlar 2023 ming so'mga (3,9% ga) kamaygan. Jami joriy aktivlar tarkibida zaxiralarning - hajmi 1029,5 ming so'mga (4,6% ga) oshgan, ammo qolganlari kamaygan. Shundan debitor qarzlari 1336,6 ming so'mga (4,7 % ga), pul mablag'lar 1715,9 ming so'mga kamaygan. Mulkning tashkil topish manbaida oshish sodir bo'lgan. O'z mablag'lar manbai 4724,7 ming so'mga (10,5 %ga) oshgan, ammo majburiyatlar hajmi 9503 ming so'mga (26,3 % ga) kamaygan. Kreditor qarzlari

6723 ming so'mga yoki 20,1 % ga kamaygan, qisqa muddatli majburiyatlar 2780 ming so'mga kamaygan.

Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda balans ma'lumotlari asosida nisbiy ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ular asosida moliyaviy holatni yaxshilash imkoniyatlari aniqlandi.

Korxonang moliyaviy holatiga baho berishda mutloq ko'rsatkichlarga qaraganda nisbiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Nisbiy ko'rsatkichlar amaliyotda moliyaviy koeffisientlar deb ataladi. Moliyaviy koeffisientlarni hisoblashda mutloq ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxona moliyaviy ahvoliga baho berishda quyidagi moliyaviy koeffisientlar ko'proq ishlatiladi.

1. Moliyaviy barqarorlik koeffisiyenti.
2. Moliyaviy mustaqillik koeffisiyenti.
3. To'lovga qodirlik koeffisiyenti. .
4. O'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffisiyenti.
5. O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffisiyenti.
6. Moddiy aylanma mablag'lar hissasi koeffisiyenti.
7. Jami aylanma mablag'larning jami mulk qiymatidagi hissasi koeffisiyenti.

3.2. Korxona moliyaviy barqarorligining tahlili

Qishloq xo'jalik korxonalarining moliyaviy holatiga baho berishdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyenti hisoblanadi.

Xo'jalikning moliyaviy barqarorligi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi va ular orqali tahlil etiladi, xulosalar chiqariladi.

Korxonaning moddiy oborot mabalg'larini tashkil qiluvchi manbalari bilan to'liq qoplangan taqdirda, uni moliyaviy barqaror xo'jalik deb atash mumkin. Demak, moliyaviy barqarorlik deganda moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalari bilan mavjud tovar – moddiy zahiralar hajmining qoplanish darajasini tushunmoq kerak.

Moliyaviy barqarorlik ahvolini o'rganish va tahlil etishning asosiy manbai buxgalteriya balansi netto hisoblanadi. Buxgalteriya balansi-nettoning quyidagi modeli asosida moliyaviy barqarorlikni aniqlash va tahlil etish yo'llarini ko'rib chiqamiz:

$$U+Z+P+D=O'+Q+B+K$$

Bunda: U – uzoq muddatli aktivlar;

Z – tovar- moddiy zahiralar (moddiy aylanma mablag'lar);

P – pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar;

D - debitorlik qarzlari;

O' – o'z mablag'larining manbalari;

Q – uzoq muddatli qarzlari va kreditlari;

B – banklarning va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari va qarzlari;

K – kreditorlik qarzlari.

Yil boshiga:

$$28776+22375,2+1715,9+28395,5=45076,0+33406,6+2780,0$$

$$81262,60=81262,60$$

Yil oxiriga:

$$26020,7+23404,7+27058,9=49800,7+26683,6$$

$$76484,3=76484,3$$

Ushbu modeldagi $Z+P+D$ belgilari joriy aktivlarni, $Q+B+K$ belgilari majburiyatlarni bildiradi.

Buxgalteriya balansi-netto modelidan ko'rinib turibdiki, aktivlar (xo'jalik mablag'lari) ikki manba hisobiga, ya'ni o'z va qarz mablag'lari hisobiga tashkil bo'ladi. Qarz mablag'lari o'z navbatida ikkiga bo'linadi:

- 1) uzoq muddatli majburiyatlar;
- 2) qisqa muddatli majburiyatlar.

Uzoq muddatli majburiyatlar asosiy vositalarni tashkil etish manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli majburiyatlar joriy aktivlarni tashkil qilish manbalaridan biridir.

Demak, joriy aktivlar ikki manba hisobiga tashkil bo'ladi. Buni yuqorida keltirilgan buxgalteriya balansi-netto modelidan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$Z+P+D=(O'+Q-U)+B+K$$

Yil boshiga:

$$22375,2+1715,9+28395,5=(45076,0+0-28776)+2780+33406,6$$
$$52486,6=52486,6$$

Yil oxiriga:

$$23404,7+0+27058,9=(49800,7+0-26020,7)+0+26683,6$$
$$50463,6=50463,6$$

Ushbu formuladan xo'jalikning joriy aktivlari ikki manba hisobiga, ya'ni o'z joriy aktivlari manbalari ($O'+Q-U$) bilan qisqa muddatli qarz mablag'lari ($B+K$) hisobiga tashkil bo'lishligi ko'rinib turibdi.

Moliyaviy barqarorlik mezoniga ko'ra moddiy aylanma mablag'lari hajmi o'z aylanma mablag'lari manbalari bilan to'la qoplansa, moliyaviy barqaror korxona bo'lib, u qisqa muddatli qarzlarini to'lash imkoniyatiga ega bo'ladi, ya'ni to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan korxona hisoblanadi. Boshqacha aytganda korxonada moliyaviy barqarorlik mavjud ekanligini yoki unda uning mustahkam ekanligini ko'rsatadi.

Moddiy aylanma mablag'lari hajmi korxonaning o'z aylanma mablag'larini tashkil qilish manbalari bilan to'la qoplasa yoki oshsa, korxona moliyaviy barqaror xo'jalik bo'lib hisoblanadi, ya'ni u qisqa muddatli majburiyatlarni o'zish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar o'z aylanma mablag'larini tashkil qiluvchi manbalar summasi tovar - moddiy zahiralar summasidan oshsa ($Z < O' + Q - U$), pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va debitorlik qarzlarning jami summasi ($P + D$) qisqa muddatli majburiyatlar jami summasidan ($B + K$) katta bo'ladi:

$$Z < O' + Q - U$$

$$23404,7 < 49800,7 + 0 - 26020,7$$

$$23404,7 < 23780,0$$

$$P + D > B + K$$

$$\text{Yil oxiri: } 27058,9 > 26683,6$$

$P + D$ hajmi $B + K$ hajmidan katta yoki unga teng bo'lsa, korxona qisqa muddatli majburiyatlarini o'zish (to'lash) qurbiga yetarli darajada ega bo'ladi. Shunday qilib, moddiy aylanma mablag'larni tashkil qilish manbalari hajmi bilan tovar - moddiy zahiralar orasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati koeffitsiyenti moliyaviy barqarorlik darajasi ahvolini belgilaydi.

Moddiy aylanma mablag'larni tashkil etuvchi manbalar o'z navbatida ikki turga bo'linadi:

- 1) o'z aylanma mablag'larining manbalari;
- 2) moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi asosiy manbalar.

Korxonaning o'z aylanma mablag'larini aniqlash uchun o'z mablag'larining manblariga (O') uzoq muddatli qarzarlar va kreditlarni (Q) qo'shib, ularning jami summasidan uzoq muddatli aktivlar summasini (U) chegirib tashlash kerak:

$$Z_o = O' + Q - U$$

$$\text{Yil boshida: } Z_o = 45076 - 28776 = 16300$$

$$\text{Yil oxirida: } Z_o = 49800,7 - 26020,7 = 23780$$

Bunda: Z_o – o'z aylanma mablag'lari manbalari summasini ($O' + Q - U$) bildiradi.

So'ngra ushbu ko'rsatkichni mavjud tovar - moddiy zahiralar hajmiga solishtirish orqali moliyaviy barqarorlik darajasi tahlil etiladi. Buning uchun manbalar summasidan mavjud zahiralar summasini chegirib, o'zgarishi (kam yoki ko'pligi) aniqlanadi, xulosa qilinadi.

Korxonaning moddiy aylanma mablag'larining tashkil bo'lishida o'z aylanma mablag'lari bilan bir qatorda qarz mablag'lari, birinchi navbatda qisqa muddatli bank kreditlari ishtirok etadi. Shu manbalar yig'indisi asosiy manbalar degan tushunchani beradi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Z_o + B = (O' + Q - U) + B$$

$$\text{Yil boshida: } 16300 + 2780 = (45076 + 0 - 28776) + 2780$$

$$19080 = 19080$$

$$\text{Yil oxirida: } 23780 + 0 = (49800,7 + 0 - 26020,7) + 0$$

$$23780 = 23780$$

Bunda: B-banklar va boshqa tashkilotlarning qisqa muddatli kreditlari va qarzlari.

Asosiy manbalarni jami summasini mavjud aylanma mablag'lar summasiga (Z) solishtirib, o'zgarishi (ko'p yoki kamligi) aniqlanadi, natijada ushbu ko'rsatkichlar orqali xo'jalikning moliyaviy barqarorligi ahvoliga baho beriladi. Tahlil gorizontal va vertikal usullar yordamida amalga oshiriladi. Tahlil ham davr boshi, ham davr oxiridagi ko'rsatkichlarni, ham davr oxirini davr boshidagi ko'rsatkichlarga qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, aylanma mablag'larning ham davr boshida, ham davr oxirida manbalar bilan ta'minlanish darajasi, hamda ularning davr oxirida davr boshiga nisbatan o'zgarishlarining ahvoli batafsil tahlil etilishi kerak.

Moliyaviy barqarorlik tahlilini yuqorida bayon qilingan qoidalarga asoslanib quyidagi jadvaldan foydalanib amalga oshirish mumkin.

3.2.1. -jadval

Fermer xo'jaligi bo'yicha moliyaviy barqarorlik darajasini tahlili.

Ko'rsatkichlar	Yil boshi, ming so'm	Yil oxiri, ming so'm	O'zgarish, (+,-)
1.O'z mablag'larining manbalari (O')	45076	49800,7	+4724,7
2.Uzoq muddatli qarzlar va bank kreditlari (Q)	-	-	-
3.Uzoq muddatli aktivlar (U)	28776	26020,7	-2755,3
4.O'z aylanma mablag'lari ($Z_0 = O' + Q - U$)	16300	23780	7480
5.Qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlar (B)	2780	-	-2780
6.Tovar - moddiy zahiralarini tashkil qiluvchi asosiy manbalar jami ($Z_0 + B$)	19080	23780	+4700
7.Balans bo'yicha mavjud bo'lgan tovar-moddiy zahiralar jami summasi (Z)	22375,2	23404,7	+1029,5
8.O'z oborot mablag'lari manbalarining zahira va sarflarga nisbatan ko'p(+), kamligi (-) ($Z_0 - Z$)	-6075,2	375,3	6450,5
9.Asosiy manbalar summasining zahira va sarflar hajmiga nisbatan ko'p(+), kamligi (-) ($Z_0 + B - Z$)	-3295,2	375,3	3670,5

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali 2012 yil ma'lumotlari

3.2.1. –jadvaldan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida moddiy aylanma mablag'lar o'z mablag'larining manbalari bilan qoplangan. O'z aylanma mablag'lari 7480 ming so'mga oshgan, qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlar yil oxirida qoplangan, tovar – moddiy zahiralarini tashkil qiluvchi asosiy manbalar jami 4700 ming so'mga oshgan, balans bo'yicha mavjud bo'lgan tovar-moddiy zahiralar jami summasi 1029,5 ming so'mga oshgan, o'z oborot mablag'lari manbalarining zahira va sarflarga nisbatan 6450,5 ming so'mga, asosiy manbalar summasining zahira va sarflar hajmiga nisbatan 3670,5 ming so'mga ko'paygan.

Demak, moliyaviy barqarorlik deganda moddiy aylanma mablag'larni tashkil qiluvchi manbalari bilan mavjud tovar – moddiy zahiralar hajmining qoplanish darajasini tushunmoq kerak.

3.3. Korxona to'lov qobiliyatining tahlili

Barcha mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar kabi fermer xo'jaligi ham turli xil korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan iqtisodiy aloqa bo'ladi, ya'ni mol yetkazib beruvchilar, sotib oluvchilar va shu jumladan tayyorlov tashkiloti, soliq, bank, sug'urta tashkilotlari va boshqa kreditorlar bilan iqtisodiy munosabatda bo'ladi. Ushbu iqtisodiy aloqalar moliyaviy intizom chegarasida sodir bo'lishi, ya'ni belgilangan muddatlarda amalga oshishi katta ahamiyatga ega. Mol yetkazib beruvchilarga, qarzini o'z vaxtida to'lash, tijorat banklaridan olingan kreditlarni belgilangan muddatda uzish, davlat byudjetiga soliklarni o'z vaqtida to'lash va hokazo to'lovlarni amalga oshirish, sotib oluvchilardan va shu jumladan tayyorlov tashkilotlaridan qarzini o'z vaqtida o'ndirib olish kabi jarayonlarni hisob-kitobi iqtisodiy tahlil bo'yicha chuqur bilimni talab qiladi. Ushbu jarayonlarning natijalari xo'jalikning to'lov qobiliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarda namayon bo'ladi, shuning uchun to'lovga qodirlik darajasini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash tahlilning asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun tahlilning oldida quyidagi asosiy vazifalar turadi.

- 1) to'lov mablag'lari va to'lov majburiyatlarini hajmini aniqlash, hisoblash;
- 2) to'lovga qodirlik ko'rsatkichlarini uning barcha turlari bo'yicha aniqlash;
- 3) to'lov qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ta'sirini hisoblash, baho berish;
- 4) to'lov qobiliyati ko'rsatkichi darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish.

Ushbu vazifalarni samarali hal etish uchun to'lov qobiliyatini ifodalovchi barcha ko'rsatkichlarini uzluksiz ravishda tahlil qilib turish zarur. Hisoblash va tahlil etish tartibi ushbu bobda quyida yoritildi.

Korxonaning moliyaviy xolatiga baho berishdagi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, to'lov qobiliyatini ifodalovchi koeffitsiyent hisoblanadi.

Balans bo'yicha xo'jalikning to'lov qobiliyatiga aylanma aktivlarning likvidlik ko'rsatkichlari orqali baho beriladi.

Balans likvidlik ko'rsatkichlarini tahlil etishdagi asosiy manbadir. Buxgalteriya balansida xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil bo'lish manbalari to'liq aks

ettirilgan bo'ladi. Xo'jalik mablag'lari balansning aktivida va ularning manbalari esa passivida ko'rsatiladi. Xo'jalik mablag'lari hozirgi paytda «Uzoq muddatli aktivlar» va «joriy aktivlar» tariqasida, ularning manbalari esa «O'z mablag'lari manbalari» va «majburiyatlar» nomlari bilan balansda aks ettirilgan.

Xo'jalikning o'z joriy aktivlari bilan qisqa muddatli majburiyatlarini qoplay olish quvvati balans likvidligi deyiladi. Boshqacha aytganda balans likvidligi qarzlarni to'lashga bo'lgan qurbining darajasini ifodalaydi. Korxonaning joriy aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlariga bo'lish orqali balansning likvidlik darajasi aniqlanadi, ya'ni to'lovga qodirlik ko'rsatkichi aniqlanadi. To'lovga qodirlik - majburiyatlarini o'z vaqtida qoplay olish qobiliyatini anglatadi.

Aktivlar likvidligi deb aktivlarning vaqt bo'yicha naqt pul shakliga aylanishiga (o'tishiga) aytiladi. Aktivlarning naqt pulga aylanishi uchun ketadigan vaqt ularning tezligini ifodalaydi.

Aktivlarning har bir turi pul shaklini olganga qadar o'tgan vaqt qancha kam bo'lsa, uning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.

Balans bo'yicha to'lov qobiliyatini tahlil etishga kirishishdan oldin balans aktivi va passividagi moddalarni maxsus belgilari bo'yicha guruhlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Balansning aktividagi xo'jalik mablag'lari «likvidlik darajasi (ya'ni pulga aylanish tezligi)» bo'yicha va balansning passividagi xo'jalik mablag'larining manbalari «to'lov muddatlari darajasi» bo'yicha maxsus guruhlariga bo'linadi.

Balans aktivlarini pulga aylanish tezligi bo'yicha quyidagi 4-ta guruhga bo'lib, tahlil etiladi.

A1 – eng yukori likvidli aktivlar. Bular doimiy harakatdagi aktivlar deb ham yuritiladi. Bu guruhga korxonaning barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli investisiyalar (qimmatli qog'ozlar) kiradi.

A2 – tez realizasiya etiladigan aktivlar. Ushbu guruhga barcha debitorlik qarzlari kiritilib kelinmokda. Bu guruhga tayyor mahsulot, tovarlar, o'stirish va boquvdagi mollarning qiymatlarini kiritish zarur deb hisoblaymiz, ammo o'stirish va boquvdagi mollarning qiymati balansda ajratib ko'rsatilmaganligi uchun biz ushbu

guruhni hajmini debitorlik qarzlar, tayyor mahsulot va tovarlar qiymati tariqasida oldik va tahlil qildik.

A3 – Sekinlik bilan realizasiya etiladigan aktivlar. Bu guruhga moddiy ishlab chiqarish zaxiralari to'liq kiritilib kelinmokda. Bizning fikrimizcha bu guruhga ishlab chiqarish zaxiralari (o'stirish va boquvdagi mollar qiymatidan tashqarisi), tugallanmagan ishlab chiqarish va uzoq muddatli investisiyani kiritib, kelgusi davr xarajatlarini chegirib tashlash kerak.

A4 – qiyinchilik bilan realizasiya etiladigan aktivlar. Bu guruhga «Uzoq muddatli aktivlar» kiritilib kelinmokda. Bizning fikrimizcha bu guruhga uzoq muddatli investisiyadan tashqari qolgan jami kismini kiritish maksadga muvofik bo'ladi.

Balans passivlarini «To'lov muddati darajasi» bo'yicha quyidagi 4-ta guruhga bo'lib, tahlil etiladi.

P1 – Tezlikda to'lanadigan majburiyatlar. Bu guruhga joriy kreditorlik qarzlar bilan o'z vaqtida qaytarilmagan bank ssudalari kiradi. Joriy kreditorlik qarzlar kreditorlik qarzlaridan Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan to'lov muddati uzaytirilgan kreditorlik qarzlarini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

P2 – Qisqa muddatli passivlar. Ushbu guruhga muddatida qaytarilmagan ssudalardan tashqari qisqa muddatli kreditlar va qisqa muddatli qarzlar kiradi. Bularning hajmini aniqlash uchun qisqa muddatli kreditlar va qarzlar summasidan Vazirlar Mahkamasining Qarorlari bilan to'lov muddati o'zaytirilgan ssuda qarzlar summasini chegirib tashlash kerak. Bularni mo'tadil qisqa muddatli kreditlar va qarzlar deb atash zarur.

P3 – Uzoq muddatli passivlar. Ushbu guruhga uzoq muddatli kreditlar va uzoq muddatli qarzlar kiradi.

P4 – Doimiy passivlar. Bu guruhga balans passivining 1-bo'limidagi barcha moddalar kiritiladi, ya'ni «O'z mablag'larining manbalari» ning jami doimiy passivlar bo'lib hisoblanadi.

Balansning ham aktivi, ham passivini maxsus guruhlarga bo'lib olgandan keyin likvidlik (to'lovga qodirlik) ko'rsatkichlari aniqlanadi va shular asosida to'lov qobiliyati ko'rsatkichi tahlil qilinadi.

3.3.1-jadval

Xo'jalikning moliyaviy barqarorligi tahlili

Joriy aktivlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
A1- korxonaning kassasidagi va bankning hisob raqamidagi mablag'lar, qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar	1715,9	0
A2 - qisqa muddatda sotiladigan tovarlar, debitor qarz va depozitlar	28395,5	27058,9
A3- uzoq muddatda sotiladigan, tayyor mahsulot, xom-ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish	0	0
A4-uzoq muddatda sotiladigan, bino va inshootlar, transport vositalari	28776,0	26020,7
Joriy passivlar	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
P1- kreditorlik qarzdorlik va qisqa muddatli majburiyatlar	33406,6	26683,6
P2- qisqa muddatli passivlar, qisqa muddatli kredit va qarzlar (zaymlar)	2780,0	0
P3- uzoq muddatli passivlar, uzoq muddatli kredit va qarzlar, аренда majburiyatlari va boshqalar	0	0
P4 – doimiy passivlar, ijara majburiyatlari va qarzdorlikdan tashqari xususiy vositalar	16300,0	23780,0
Tahlil		
A1>P1	-31690,7	-26683,6
A2>P2	25615,5	27058,9
A3>P3	0	0
A4<P4	-12476,0	-2240,7
Moliyaviy barqarorlikning bahosi		375,3

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

3.4.To'lovga qodirlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash usullari

Balans-netto ma'lumotlari bo'yicha maxsus guruhlariga bo'lingan aktivlar va passivlar tarkibidagi moddalar asosida fermer xo'jaligining to'lov qobiliyatiga

baho berish uchun amaliyotda balans likvidligining quyidagi nisbiy ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

1. Mutloq likvidlik koeffitsiyenti (mutloq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti).
2. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti (oraliq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti).
3. Joriy likvidlik koeffitsiyenti (joriy to'lovga qodirlik koeffitsiyenti).

Ushbu koeffitsiyentlar bir-biridan formulaning suratidagi to'lov mablag'larining tarkibi bo'yicha farq qiladi, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashda (to'lashda) ishtirok etuvchi likvidli aktivlar tarkibi bilan bir-biridan farq qiladi. Endi, ushbu koeffitsiyentlarni hisoblash usullariga to'xtalamiz.

1. **Mutloq likvidlik koeffitsiyenti.** Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun yuqori likvidli aktivlarni (A1) qisqa muddatli majburiyatlarga (tezlikda to'lanadigan majburiyatlar (P1) bilan mo'tadil qisqa muddatli passivlar (P2) summalarining yig'indisiga) bo'lish kerak.

$$K_{ml} = \frac{A1}{P1+P2} = \frac{1715,9}{33406,6+2780,0} = 0,04$$

«Eng yuqori likvidli aktivlar» yuqorida qayd qilinganidek pul mablag'lari bilan qisqa muddatli investisiyalardan tashkil topadi. Bu koeffitsiyent xo'jalikning mutloq to'lovga qodirligi darajasini ifodalaydi. Boshqacha aytganda pul mablag'lari bilan qisqa muddatli investisiyalar (qimmatli qog'ozlar) hisobiga qisqa muddatli qarzlarini qancha qismini qaytara olishi (yoki to'lay olishi) mumkinligini bildiradi.

2.Tezkor likvidlik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyentni oraliq to'lovga qodirlik koeffitsiyenti deb ham atashadi. Buni likvidlik koeffitsiyenti formulasining suratiga (A1) debitorlik qarzlarini, tayyor va tovar mahsulotlari qiymatini qo'shib, yig'indisini (A2) joriy kreditorlik qarzlarini bilan mo'tadil qisqa muddatli passivlar jamiga bo'lish kerak.

Demak, boshqacha aytganda, ushbu koeffitsiyentni aniqlash uchun «eng yuqori likvidli aktivlar» ga «tez realizasiya etiladigan aktivlar (A2) summasini

qo'shib, yig'indisini mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlar» summasiga bo'lmoq kerak, ya'ni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin.

Hisobot davri boshiga:

$$K_{\text{TI}} = \frac{A1 + A2}{P1 + P2} = \frac{1715,9+28395,5}{33406,6+2780,0} = 0,83$$

Hisobot davri oxiriga:

$$K_{\text{TI}} = \frac{A1 + A2}{P1 + P2} = \frac{0+27058,9}{26683,6+0} = 1,01$$

Agar ushbu koeffitsiyent «1» yoki undan katta bo'lsa mo'tadil ko'rsatkich bo'lishi mumkin.

$$K_{\text{TI}} \geq 1$$

Demak, ushbu koeffitsiyent shunday bo'lgan taqdirda korxona mavjud pul mablag'lari, qisqa muddatli investisiyalar, debitorlik qarzlari, tayyor mahsulot va tovarlar bilan mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash qurbiga (qobiliyatiga) ega bo'la oladi, agar debitorlik qarzlarni tezlikda o'ndiraolsa, tayyor mahsulot va tovarlarni o'z vaqtida sotib pulga aylantira olsa, shunda to'lov layoqatiga ega bo'ladi.

2. Joriy likvidlik koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyentni aniqlash uchun «eng yuqori likvidli aktivlar» bilan «Tez realizasiya etiladigan aktivlar» tarkibiga «sekinlik bilan realizasiya etiladigan aktiv» larni qo'shib, jami summasini mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish kerak, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib aniqlanadi.

$$K_{jl} = \frac{A1 + A2 + A3}{\Pi1 + \Pi2}$$

Yil boshiga :

$$Kjl = \frac{1715,9 + 28395,5 + 0}{33406,6 + 2780,0} = 0,83$$

Yil oxiriga:

$$Kjl = \frac{0 + 27058,9 + 0}{26683,6 + 0} = 1,01$$

Formulaning suratidagi ko'rsatkichlar kelgusi davr xarajatlarini chegirib tashlangandan keyin, qolgan jami joriy aktivlar hajmini ifodalaydi. Demak, joriy aktivlar summasini mo'tadil qisqa muddatli majburiyatlarga bo'lish orqali joriy likvidlik koeffisiyenti aniqlanadi. Boshqacha aytganda, joriy to'lovga qodirlik koeffisiyenti aniqlanadi.

Joriy likvidlik (to'lovga qodirlik) koeffisiyenti nimani bildiradi? Bu koeffisiyent xo'jalik debitorlik qarzlarini o'z vaqtida undira olsa, tayyor va tovar mahsulotlarini mo'tadil holatda realizasiya qila olsa, hamda ishlab chiqarish zaxiralarini ayrim turlarini zarurat tug'ilganda sota olsa hamda tugallanmagan ishlab chiqarishni pul shakliga aylantira olgan taqdirda korxona aylanma aktivlari bilan mo'tadil qisqa muddatli majburiyalarni qoplay (tulay) olish imkoniyatiga ega bo'lishligini ya'ni to'lovga qodir bo'lishligini bildiradi.

3.Muxtorlik koeffisiyenti.

Yil boshiga: $K_A = O'z\ mablag'lati\ manbalari / Passiv\ balansi * 100;$

$$K_A = 45076,0 / 81262,6 * 100 = 55,46 \approx 55,5$$

$$Yil\ oxiriga: K_A = 49800,7 / 76484,3 * 100 = 65,11 \approx 65,1$$

Yuqorida bayon qilingan to'lovga qodirlik (ya'ni likvidlik) koeffisiyentlarini hisoblash tartibini quyidagi shaklda keltirdik.

3.4.1.-jadval

Fermer xo'jaligini to'lov qobiliyatini baholash

№	Ko'rsatkichlar	Hisobot davri	Hisobot	Toifa
----------	-----------------------	----------------------	----------------	--------------

		boshiga	davri oxiriga	
1	Tezkor likvidlik koeffitsiyenti.	0,83	1,01	2
2	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	0,83	1,01	2
3	Muxtorlik koeffitsiyenti	55,5	65,1	1
4	Uzoq muddatli aktivlar	28776,0	26020,7	
5	O'z mablag'lari manbalari	16300,0	23780,0	
6	Olingan sof foyda	9800,0	7480,0	
7	Qarzdorlik			
	a)Bank ssudalari bo'yicha	2780	0	
	b)Hisob-kitob xujjatlari bo'yicha	11985,9	3147,8	

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Xo'jalikning yil 1- yanvar holatidagi buxgalterlik balansi aktiv qismida naqd pul va qisqa muddatda sotiladigan tovarlari qimmatli qog'ozlari yo'q. Qisqa muddatda sotiladigan tayyor mahsulot tovarlari 27058,9 ming so'mni va uzoq muddatda sotiladigan tayyor mahsulot, xom-ashyo materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish yo'q. Uzoq muddatda sotiladigan bino va inshootlari 26020,7 ming so'mdan iborat. Balansning passiv qismida kreditor qarzlari 26683,6 ming so'mni tashkil qiladi. Qisqa muddatli kreditlari va uzoq muddatli kreditlari yo'q. Xo'jalikning ijara majburiyatlari va qarzdorlikdan tashqari xususiy vositalari 23780,0 ming so'mni tashkil qiladi. Xo'jalikning sotiladigan tovarlari summasi uning to'lov majburiyatidan 375,3 ming so'm ortiq. Tezkor likvidlik koeffitsiyenti hisobot davri boshiga 0,83 hisobot davri oxiriga 1,01 ga, joriy likvidlik koeffitsiyenti 0,83 va 1,01 ga teng. Tahlil natijalariga ko'ra Fermer xo'jaligining to'lov qobiliyatini baholash koeffitsiyentlari bo'yicha qoplash va likvidlik koeffisienti 2-sinfga, mustaqillik koeffisienti 1-sinfga kiradi.

4.Qishloq xo'jaligini lizing asosida texnika bilan ta'minlashning samaradorligi

4.1.Lizing jarayonlarini rivojlantirish tahlili va lizingdan foydalanishning hozirgi xolati.

Bugungi kunda lizing faoliyati sohasi O'zbekistonda iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Lizing ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik bo'lib, bunda ishlab chiqaruvchi o'z ishlab chiqargan mahsulotini lizing orqali tezda sotish, iste'molchi korxona esa,

lizing yordamida kam mablag' sarflash orqali yangi texnika olish va o'z mashina-traktor parkini jadal yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lizing o'z mohiyatiga ko'ra investision faoliyat turi bo'lib, bunda lizing beruvchi tashkilot o'z mablag'i (yoki kreditga olingan mablag') hisobidan sotib olingan yangi texnika yoki uskunani ishlab chiqarishda foydalanish uchun boshqa korxonaga uzoq muddatga haq evaziga moliyaviy ijaraga beradi.

Qonunga muvofiq lizing obyekti lizing oluvchi balansida hisobga olinadi.

Davlat organlarida ro'yxatdan o'tkazilishi talab etiladigan lizing obyektlari (Traktorlar va kombaynlar – "Boshdavtexnazorat" inpeksiyasida, avtotransport vositalari – "Davlat Yo'l harakati xavfsizligi" boshqarmasida) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lizing beruvchining yoki lizing oluvchining nomiga rasmiylashtiriladi.

Qonunga muvofiq Lizing beruvchi lizing shartnomasi bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

Agar, Lizing oluvchi lizing to'lovlari lizing shartnomasida belgilangan miqdor va muddatlarda to'lamasa:

- to'lov kechiktirilgan (yoki to'lanmagan) davr uchun hosil bo'lgan qarzdorlik summasiga penya hisoblash;

- "Agrobank"ning hududiy bo'linmasi orqali Lizing oluvchining bankdagi hisob-kitob paqamiga akseptsiz (so'zsiz) undiriladigan to'lov talabnomasini qo'yish;

- "Texnikadan foydalanishni vaqtinchalik taqiqlash dalolatnomasi"ni tuzib, Texnikadan foydalanishni qarzlar to'languniga qadar bo'lgan muddatga taqiqlash;

- Kafillik shartnomasi asosida Kafildan lizing to'lovlari bo'yicha hosil bo'lgan qarzni va penyani undirish;

- Shartnomani bir tomonlama bekor qilish va Texnikani Lizing oluvchidan qaytarib olish.

- Texnika yo'qotilca, foydalanishga yapoqciz holatga keltirilsa, Lizing oluvchidan to'lanmagan barcha lizing to'lovlarini muddatidan oldin to'lashini talab etish.

Lizing oluvchining huquqlari:

- Lizing beruvchidan shartnoma shartlarini lozim darajada bajarilishini talab qilish;

- Texnika shartnomada kelishilgan muddatda yetkazib berilmagan, to'liq yetkazib berilmagan, yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan bo'lsa yetkazib beriladigan Texnikadan voz kechish va lizing shartnomasining bekor qilinishini talab etish.

- Lizing beruvchi va Sotuvchi (zavod) o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi talablarni, jumladan Texnikaning sifati, butligi, kafolatli ta'mirlanishi va yetkazib berish muddati xususida Sotuvchiga talablar qo'yish.

- Lizing muddati mobaynida Texnikadan foydalanish va unga egalik qilish.

- Shartnomada belgilangan lizing to'lovlari to'liq to'langanidan so'ng, Texnikani mulk sifatida qabul qilib olish.

Lizing beruvchining majburiyatlari:

- Texnikani sotib olish va uni Lizing oluvchiga shartnomada belgilangan muddatlarda topshirish.

- Texnikani lizingga berilishi to'g'risida Sotuvchiga ma'lum qilish.

- Texnikaning sifati va butligi, kafolatli ta'mirlanishi xususida Ishlab chiqaruvchiga, topshirish muddati xususida Sotuvchiga talablar qo'yishda Lizing oluvchiga yordam berish.

Lizing oluvchining majburiyatlari:

- Lizing obyektini, ishlab chiqaruvchini va sotuvchini tanlash.

- Texnika uchun berilgan yagona nomer belgisini lizing beruvchidan qabul qilib olish, texnikaga o'rnatish va "Davtexnazorat" inspeksiyasining tuman (shahar) bo'limida ro'yxatga qo'yish.

- Texnikani 10 kunlik muddat ichida viloyat Texnik markazida ro'yxatga qo'yish.

- Lizing to'lovlarini shartnomada belgilangan muddat va miqdorlarda to'lab berish.

- Texnikadan texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda, uning texnik pasportida ko'rsatilgan o'z vazifasi va texnik imkoniyatlari darajasida texnik shartlarga muvofiq foydalanish;

- Texnikani haydovchilik guvohnomasi yo'q shaxslarga boshqarishga bermaslik.

- Texnikaga uning texnik pasportida ko'rsatilgan muddatlarda texnik xizmatlar ko'rsatish va bir yilda bir marta texnik ko'rikdan o'tkazish.

- Texnikaning konstruksiyasiga o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritmaslik.

- Texnikani sotmaslik, garovga qo'ymaslik, uchinchi shaxslarga bermaslik, qarovsiz qoldirmaslik, nosoz holda foydalanmaslik va unga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlarni amalga oshirmaslik.


- Lizing oluvchining o'z majburiyatini bajarmaganligi (yoki lozim darajada bajarmaganligi) natijasida ushbu shartnoma bekor qilingan taqdirda, texnikani o'rnatilgan tartibda lizing beruvchiga qaytarish.

O'zbekistonda lizing sohasining rivoji uchun yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlar hamda lizing bozorining hozirgi holati to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tsak: Hozirgi vaqtda respublikamiz lizing bozorida jami 87 ta korxona va tashkilot lizing faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lib, shundan 46 tasini ixtisoslashgan lizing kompaniyalari, 23 tasini tijorat banklari va 18 tasini boshqa korxonalar va kichik moliyaviy muassasalar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor hamda yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar lizing sohasini respublikamizda jadal rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

4.1.1-rasm

O'zbekistonda lizing beruvchilar soni va tarkibi



Lizing beruvchilar	
tarkibi	soni
Tijorat bahklari	23
Lizing kompaniyalari	46
Boshqa lizing beruvchilar	18
Jami:	87

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi PQ-1166-sonli qaroriga muvofiq 2009 yilning 1 sentyabridan boshlab, lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarning uch yil muddatga foyda solig'idan yoki lizing operatsiyalaridan tushadigan daromadlar bo'yicha yagona soliq to'lovidan ozod etilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30 dekabrda PQ-1675-sonli qaroriga muvofiq lizing faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2014 yilning 1 yanvarigacha muddatga daromad solig'i va yagona soliq to'lovidan ozod etilganligi;

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq:

lizing to'lovlarini - qo'shilgan qiymat solig'idan;


lizingga berish uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinadigan texnologiya uskunalari - bojxona to'lovidan va qo'shilgan qiymat solig'idan;

lizing oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlarning lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga lizingga berilgan mulkka soliq to'lashdan ozod qilinganligi;

respublikamizda lizing faoliyati bilan shug'ullanish uchun qulay qonunchilik bazasining yaratilganligi, shular jumlasidandir.

O'zbekistonda lizing faoliyatini rivojlantirish uchun berilgan soliq imtiyozlari

Quyidagilar soliq va bojxona to'lovidan ozod etilgan:



Shuningdek, lizing oluvchining soliq undiriladigan daromad bazasi lizing foizlari summasiga kamaytiriladi.

Respublikamizda yaratilgan ana shunday qulay muhit natijasida lizing faoliyati yildan-yilga to'xtovsiz rivoj topib bormoqda.

O'zbekiston Lizing beruvchilar Uyushmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda keyingi 7 yil ichida lizing operatsiyalari hajmi 90,6 mlrd so'mdan 484,5 mlrd so'mgacha oshib, 5,3 barobarga o'sgan, 2012 yilda esa lizing operatsiyalari hajmining 500,0 mlrd so'mdan oshishi kutilmoqda.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sohasida lizing xizmatlari ko'rsatish bo'yicha "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalarini foydalanuvchilar tomonidan lizing orqali xarid qilinishi o'z qulayligi va maqbulligini ko'rsatmoqda. Bu, Hukumatimiz tomonidan lizing sohasida yaratilgan imtiyozlar natijasidir.

Hukumatning 2000 yil 2 noyabrdagi "Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq fermer xo'jaliklari, mashina-traktor parklari hamda hududiy "Qishloqxo'jalikkimyo" aksiyadorlik jamiyatlari uchun "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" kompaniyasi

xizmatidan foydalanishda bir qator imtiyozli lizing shartlari belgilangan. Bu imtiyozlarga - lizing obykti qiymatining 15 foizini oldindan to'lab berilishi, traktorlar va o'rim-yig'im texnikalarining fermer xo'jaliklariga va Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatidagi mashina-traktor parklariga 10 yil muddatga, boshqa viloyatlardagi mashina-traktor parklari va "Qishloqxo'jalikimyo" aksiyadorlik jamiyatlariga 7 yil muddatga lizingga berilishi, lizing foizi yillik miqdorining Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmasligi kiradi.

Kompaniyaning asosiy mijozlari:

- fermer xo'jaliklari;
- mashina-traktor parklari;
- "Qishloqxo'jalikimyo" kompaniyasining hududiy (viloyat va tuman) bo'linmalari;
- "Agrotexservis" korxonalari;
- va boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridan iboratdir.

Kompaniya tomonidan lizing operasialari amalga oshirilishida quyidagi lizing shartlari qo'llaniladi:

Traktorlar va kombaynlar uchun:

- avans - texnika qiymatining 15 % miqdorida;
- lizing muddati – 10 yil;
- lizing daromadi foizi – Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizi miqdoridan oshmaydi.

Boshqa turdagi qishloq xo'jalik texnikalari uchun:

- avans - texnika qiymatining 20-40 % miqdorida;
- lizing muddati – 3 yilgacha;
- lizing daromadi foizi lizing shartnomasi shartlari asosida belgilanadi.

Kompaniya o'z faoliyatini boshlagan 2000 yildan boshlab o'tgan davr mobaynida respublikamizdagi 29 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi korxonalariga jami 590 mlrd. so'mlik qiymatdagi 42 ming 890 donadan ortiq har xil turdagi qishloq xo'jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berishni amalga oshirdi.

Lizingga yetkazib berilgan texnikalar qiymati bo'yicha tahlil qilinganida 2011 yilda Kompaniya tomonidan 133,2 mlrd. so'mlik qiymatdagi texnikalar lizingga yetkazib berilgan bo'lib, bu 2008 yildagi (48,9 mlrd. so'm)ga nisbatan 2,7 barobarni tashkil etadi. 2012 yilda 167,7 mlrd so'm qiymatdagi yoki 2011 yildagiga nisbatan 26,0 foizga ko'p qiymatdagi texnikalar lizingga yetkazib berildi. Respublika qishloq xo'jaligi korxonalariga lizingga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jalik texnikalari turlari ham yildan-yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 2008 yilda 18 turdagi texnikalar lizingga yetkazib berilgan bo'lsa, 2011 yilda 30 xil turga, 2012 yilda esa 38 turga yetkazildi.

Lizingga berilgan qishloq xo'jalik texnikalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganida Qashqadaryo, Samarqand, Surxonadaryo va Farg'ona viloyatlari tomonidan eng ko'p miqdordagi texnikalarni lizingga olinganligini ko'rish

mumkin. O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga texnika yetkazib berishda quyidagi 3 turdagi iqtisodiy mexanizmdan foydalanilmoqda:

- lizing kompaniyasi tomonidan qarz (kredit)ga olingan mablag' hisobidan lizing obyektni sotib olib, lizing oluvchiga yetkazib berilishi;
- tijorat banklari tomonidan Markaziy bankdan olingan kredit yoki o'z mablag'i hisobidan lizing obyektni sotib olib, lizing oluvchiga yetkazib berilishi;
- tijorat banklari tomonidan qishloq xo'jaligi korxonasiga texnika sotib olish uchun kredit ajratilishi.

“O'zqishloqxo'jalikmashlizing” kompaniyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'i hisobidan lizingga beriladigan Texnikalar narxiga Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 2 maydagi 126-sonli qaroriga asosan 8,14% chegirma qo'llanilishi belgilangan. Keyingi 5 yil ichida respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasida lizing faoliyatini yanada rivojlantirish istiqbollari mavjudmi va agar mavjud bo'lsa, bunga qanday asos, zamin va imkoniyatlar bor degan savol bo'lishi tabiiy.

Shuni to'la ishonch bilan aytish mumkinki, respublikamiz qishloq xo'jaligida keyingi yillarda ham lizing faoliyatini katta odimlar bilan rivojlanishi uchun hamma asoslar bor va imkoniyatlar yaratilgan.

4.2.Lizing asosida texnikadan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Iqtisodiyot qonunlaridan ma'lumki, lizingni amalga oshirilishi bo'yicha amalda qilingan xarajatlarni hisobga olmasdan turib uni samaradorligini aniqlab bo'lmaydi. Lizing jarayonining amalga oshirilishida lizing beruvchining (L_b) umumiy xarajatlarini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$L_b = LO_x + K_t + S_x + B_x + N_x \quad (1)$$

Bunda:

LO_x --- lizing obyektini sotib olish xarajati, so'm;

K_t ---lizing obyektini sotib olish uchun jalb etilgan kredit to'lovini qaytarish xarajatlari, so'm;

S_x —soliq to'lovini to'lash xarajatlari, so'm;

B_x – bojxona to'lovlari va yig'implarii to'lash xarajatlari, so'm;

N_x —lizing beruvchining boshqa xarajatlari, so'm;

Lizing jarayonini amalga oshirilishida lizing oluvchining (Lo) umumiy xarajatlarini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$Lo = A_a + L_b \cdot d + K_x + B_t + S_t - QQS \quad (2)$$

Bunda:

A_a - joriy yilda lizing obyektini uchun ajratiladigan va lizing beruvchiga to'lanadigan amortizatsiya ajratmalari, so'm;

$L_b \cdot d$ – lizing beruvchining daromad (lizing marjasi) foizi summasini to'lash xarajatlari, so'm;

K_x – lizing beruvchining lizing obyektini sotib olish va lizingga yetkazib berishda amalga oshirgan qo'shimcha xarajatlarini qoplash summasi, so'm;

B_t – bojxona bojini to'lash xarajatlari, so'm;

S_t – lizing obyektini sug'urtalash xarajatlari, so'm;

QQS – lizing to'lovi uchun qo'shimcha qiymat solig'i, so'm;

Jizzax viloyati Forij tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligining lizingga olingan «TTZ-80,11» rusumli chopiq traktori uchun amalga oshirgan xarajatlari va lizing obyektidan foydalanish natijasida olgan daromadini quyidagi tahlil asosida ko'rib chiqamiz:

Forij tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligi tomonidan «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK Jizzax viloyati filialidan 44550263 so'mlik «TTZ-80,11» rusumli chopiq traktorini 10 yillik muddatga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 424-sonli «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori bilan belgilangan tartibda lizingga oladi. Lizing shartnomasiga ko'ra lizing to'lovlari hisoblanish usuliga ko'ra-bo'nakli, kiritilishining davriyligi bo'yicha-davriy, ya'ni to'lov xar 6 oyda bir marta, to'lanilishining miqdoriga ko'ra-kamayib boradigan miqdorlar bilan amalga oshiriladi. Shartnoma bo'yicha lizing summasi 56479,252 ming so'mga teng bo'lib shartnoma shartiga ko'ra texnika narxining 15 foizi, ya'ni 6682,539 ming so'mlik qismi lizing oluvchi tomonidan avans sifatida lizing beruvchiga to'lab berilgan. Texnika narxining 85 foizi, ya'ni 37867,724 ming so'mlik qiymati lizing kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan. Lizing oluvchi tomonidan 10 yil mobaynida to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovlarining umumiy summasi 49796,713 ming so'mni tashkil etadi. Lizing beruvchining daromad (marja) foizi miqdorini ko'rsatuvchi lizing stavkasi (L_s)-yillik 6%. Lizing obyekti lizing oluvchi tomonidan «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasining Forij tuman bo'linmasida 10 yillik lizing muddatiga sug'urtalangan bo'lib, sug'urta mukofotini (St) to'lash xarajati 445500 so'm to'lab berilgan. Lizing obyekti «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan respublika ichida, ya'ni Toshkent traktor zavodidan xarid qilinganligi munosabati bilan bojxona bojini to'lash xarajatlari nolga teng. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan lizing obyektiga davlat raqam belgisini olish, birinchi texnik ko'rikdan o'tkazish va texnik pasport olish xarajatlari uchun 100283,4 so'm qo'shimcha xarajat (Q_x) qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi qabul qilingan «Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» gi Farmoniga muvofiq, 2002 yilning 1 sentyabridan boshlab lizing to'lovlari – qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinganligi munosabati bilan QQS xarajatlari xam nolga teng bo'ldi. Bu vaziyatda lizing oluvchining lizing bo'yicha xarajatlari quyidagiga teng bo'ladi:

$$L_o = A_a + L_{b. d} + K_x + S_t \quad (3)$$

Joriy yilda lizing obyekti uchun ajratiladigan va lizing beruvchiga to'lanadigan amortizasiya ajratmalari (A_a) quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$A_a = (T_k \times 0,85/L_m) \times 12 \quad (4)$$

$$A_a = (44550,263 \times 0,85/120) \times 12 = 37867724 \text{ so'm}$$

Bunda:

T_k – lizing obyekti (traktor) ning qiymati, so'm;

0,85- lizing obyekting 85 foizlik qiymati, so'm;

L_m – lizing muddati shartnomaga asosan 120 oy (ya'ni 10 yil) ga teng.

Lizing beruvchining daromad (lizing marjasi) foizi summasi ($L_{b. d}$) ni lizing shartnomasida belgilanganiga muvofiq quyidagi formulaga asosan oyma-oy hisoblanishi talab etiladi va bu miqdor lizingni birinchi oyi uchun:

$$L_{b. d 1 \text{ oy}} = (T_k \times 0,85) \times L_s / 12 \text{ oy} \quad (5)$$

Bunda: L_s – lizing beruvchining yillik daromad (marja) foizi miqdorini ko'rsatuvchi lizing stavkasi, shartnomaga asosan yillik 7 foizga teng;

Shu tariqa, lizing beruvchining lizing muddati mobaynida istalgan oydagi daromad (lizing marjasi) foizi summasi ($L_{b. d n\text{-oy}}$) quyidagi formulaga muvofiq hisoblanadi:

$$L_{b. d n\text{-oy}} = (T_k \times 0,85) - (T_k \times 0,85/L_m) \times (n-1) \times L_s / 12 \text{ oy} \quad (6)$$

4.2.1- jadval

Forij tumani «Asil bobo» fermer xo'jaligi bo'yicha lizing to'lovlarini hisobi va to'lov grafigi. (Ming so'm)

№	Texnikaning qoldiq qiymati	Lizing to'lovi to'lashning oxirgi sanasi	Texnikaning xar 6 oylik lizing davriga to'g'ri keladigan qiymati qismi	Xar 6 oylik davr uchun hisoblangan lizing foizi summasi miqdori	Xar 6 oyda to'lanadigan lizing to'lovi miqdori
1	37867,724	30.06.2013	1876,796	1126,694	3003,490
2	35990,928	31.12.2013	1907,903	1088,602	2996,505
3	34083,025	30.06.2014	1876,796	1014,087	2890,882
4	32206,229	31.12.2014	1907,903	974,128	2882,031
5	30298,326	30.06.2015	1876,796	901,479	2778,275
6	28421,531	31.12.2015	1907,903	859,654	2767,557
7	26513,628	30.06.2016	1876,796	791,062	2678,227
8	24626,463	31.12.2016	1907,903	742,831	2650,734
9	22718,560	30.06.2017	1876,796	675,955	2552,751
10	20841,765	31.12.2017	1907,903	630,392	2538,295
11	18933,862	30.06.2018	1876,796	563,347	2440,143
12	17057,066	31.12.2018	1907,903	515,918	2423,821
13	15149,163	30.06.2019	1876,796	450,740	2327,535
14	13272,368	31.12.2019	1907,903	401,444	2309,346
15	11364,465	30.06.2020	1876,796	339,071	2226,236
16	9477,300	31.11.2020	1907,903	285,873	2193,775
17	7569,397	30.06.2021	1876,796	225,215	2102,011
18	5692,602	31.12.2021	1907,903	172,182	2080,085
19	3784,699	30.06.2022	1876,796	112,608	1989,403
20	1907,903	31.12.2022	1907,903	57,708	1965,611
	x	Jami:	37867,724	11928,989	49796,713

Manba "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Lizing marjasi xar olti oyda ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblangan jadvalda ko'rsatilgan to'lov grafigi asosida traktorning amaldagi qoldiq qiymatining to'liq miqdoriga hisoblanadi. Birinchi to'lov texnika olingan vaqtdan boshlab, qaysi sana oldin keshiga qarab, 1 iyul yoki 1 yanvargacha hisoblanadi.

Lizing shartnomasiga ilova qilingan va yuqorida bayon qilingan formula asosida xisob-kitob qilingan lizing to'lovlari grafigiga muvofiq «Asil bobo» fermer xo'jaligi 10 yil uchun 11928,989 ming so'mlik lizing daromadi (marjasi) foizi summasini amalga oshirgan. Lizing faoliyatini fermer xo'jaligi uchun qanday samara keltirganligini aniqlash maqsadida «ASil bobo» fermer xo'jaligining lizing obyekti hisoblangan «TTZ-80.11» rusumli traktordan bir yil uchun qancha miqdorda iqtisodiy samaradorlikka erishilganligini hisoblab topamiz.

4.2.2-jadval

2013 yilda yetishtirilgan paxta va g'alla xom-ashyosini sotishdan olinadigan daromad

Mahsulot nomi	Kontraktasiya shartnomalari			O'rtacha xarid narxi, 1 t mahsulot uchun ming so'm	Yetkazib beriladigan mahsulotning umumiy qiymati, ming so'm
	Yer maydoni,	Hosildorligi, s/ga	Yetkazib beriladigan mahsulot xajmi, tonna		
g'alla	19,2	31,0	59,5	338,0	20111,0
Paxta	34,1	29,0	98,9	696,8	68909,6
Jami:	53,3	x	158,4	x	89020,6

Manba "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Fermer xo'jaligi 2013 yilda 19,2 gektar maydonning xar gektaridan 31,0 sentnerdan, jami 59,5 tonna g'alla, 34,1 gektar maydonning xar gektaridan 29,0 sentnerdan, jami 98,9 tonna paxta xom ashyosi yetishtirib davlatga sotish rejalashtirilgan. Yuqoridagilarga asosan fermer xo'jaligi 2013 va kelgusi yillarda kontraktasiya shartnomalariga muvofiq paxta va g'alla xom-ashyosini sotishidan yalpi daromad 89020,6 ming so'mni tashkil qiladi.

4.2.3-jadval

Lizingga olinadigan “TTZ-80,11” rusumli traktori uchun avans va lizing to'lovlari

To'lovlar nomi	Miqdori, ming so'm	To'lov manbasi
Avans to'lovi	6682,5	O'z mablag'i hisobidan
2013 yili lizing to'lovi	6000,0	2012 yil daromadidan
2014 yili lizing to'lovi	5772,9	2013 yil daromadidan
2015 yili lizing to'lovi	5545,8	2014 yil daromadidan
2016 yili lizing to'lovi	5329,0	2015 yil daromadidan
2017 yili lizing to'lovi	5091,0	2016 yil daromadidan
2018 yili lizing to'lovi	4864,0	2017 yil daromadidan
2019 yili lizing to'lovi	4636,9	2018 yil daromadidan
2020 yili lizing to'lovi	4420,0	2019 yil daromadidan
2021 yili lizing to'lovi	4182,0	2020 yil daromadidan
2022 yili lizing to'lovi	3955,0	2021 yil daromadidan
Sug'urta polisi uchun to'lov	445,5	O'z mablag'i hisobidan

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Lizingga olingan “TTZ-80,11” rusumli traktori uchun lizing to'lovlarining bir qismi xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki tomonidan paxta va g'alla yetishtirish uchun ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'lari hisobidan, ikkinchi qismi topshirilgan paxta va g'alla hosilini 80% va yakuniy hisob kitoblaridan, xamda boshqa daromadlardan fermer xo'jaligi to'lab beriladi. Xo'jalik taqdim etgan “Biznes-Rejasi” loyihasi bo'yicha TTZ-80.11 Rusumli traktorni lizingga olish uchun 6682,5 ming so'm avans mablag'ini o'z mablag'idan to'lab berishni rejalashtirgan. 2013 yil uchun to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovining 3191,5 ming so'mini paxta va g'alla etishtirish uchun mexanizasiya xizmatlariga ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'larining 60 % lik hisob kitobidan to'lab berishni rejalashtirgan. Qolgan 2808,5 ming so'mini paxta va g'alla xom ashyosi topshirilgandan so'ng 90 % lik va yakuniy hisob kitoblardan to'lab berishni

rejalashtirgan. Lizing muddatining keying yillarida ham ushbu mexanizm asosida to'lab berishni rejalashtirgan.

4.2.4-jadval

Lizingga olinadigan “TTZ-80,11” rusumli traktori uchun lizing to'lovlarini qaytarilish hisob-kitobi va uning manbalari

t/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2013 yil	Kelgusidagi 2014-2022 yillar uchun
1	Jami mahsulot sotishdan olinadigan daromad	Ming so'm	89020,6	89020,6
2	Jami mexanizasiya xizmatlari uchun ajratuladigan kredit mablag'i (60%) Shu jumladan			
2.1.	Paxta uchun (37,6 ming so'm tonna hisobiga)	Ming so'm	2231,2	2231,2
2.2.	G'alla uchun (26,9 ming so'm tonna hisobiga)	Ming so'm	960,3	960,3
3	Mexanizasiya xizmatlarini xarajatlaridan lizing to'loviga ajratiladigan mablag'	Ming so'm	3191,5	3191,5
4	Jami paxta va g'alla xom-ashyosi topshirilganidan so'ng yakuniy hisob kitobidan to'lab beriladigan lizing to'lovi, shu jumladan:	Ming so'm	2808,5	2581,4
4.1.	80% hisob kitobdan	Ming so'm	2127,7	2127,8
4.2.	Yakuniy hisob kitobdan	Ming so'm	680,8	453,6
5	Boshqa daromadlardan	Ming so'm	0	0
5.1.	Go'st va sut mahsulotlarini etishtirish	so'm	0	0
5.2.	Meva sabzavot etishtirish		0	0
6	Farqi “+,-“	Ming so'm	0	0

Manba: O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Quyidagi jadvalda 10 yillik lizing munosabati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami sof daromadning taxlili keltirilgan.

4.2.5-jadval

Lizingga olingan TTZ- 80.10 rusumli traktordan 10 yillik lizing muddati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami sof daromad.

№	Ko'rsatkichlar nomi	Lizing
1	Traktor narxi, ming so'm	44550,263
2	Lizing muddati, yil	10
3	Shartnoma buyicha avans to'lovi foizi.%	15
4	Shartnoma buyicha avans to'lovi summasi, ming so'm	6682,539
5	Traktor narxining lizing kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan qismi, ming so'm	37867,724
6	Yillik lizing marjasi foizi,%	6
7	Shartnoma bo'yicha jami lizing summasi, ming so'm	56479,252
8	Lizing muddati mobaynida topilgan jami daromad, ming so'm	1004468,0
9	Yillik agrotexnik tadbirlar xarajati, ming so'm	664385
10	Sug'urta mukofotini to'lash xarajati, ming so'm	445,5
11	Davlat raqami belgisi, texnik pasport olish va texnik ko'rikdan o'tkazish xarajati, ming so'm	100,2834
12	10 yillik lizing to'lovini to'lash xarajati, ming so'm	49796,713
13	Lizingdan foydalanish evaziga olingan sof daromad, ming so'm	283057,9646
14	Samaradorlik darajasi,%	39,2

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, lizingga olingan TTZ- 80.10 rusumli traktordan 10 yillik lizing muddati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami daromad 1004468,0 ming so'm, yillik agrotexnik tadbirlar xarajati 664385 ming so'mni tashkil etib, lizingdan foydalanish evaziga olingan sof daromad 283057,9646 ming so'mni yoki samaradorlik darajasi 39,2 % ni tashkil etgan.

4.3.Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashda lizing va kredit resurslaridan foydalanishning afzalliklari

Lizing bitimlarini amalga oshirish jarayonidagi huquqiy munosabatlar, shu jumladan investisiyalash va tovar bilan kreditlash munosabatlari, oldi-sotti huquqiy munosabatlari, ijaraga oid huquqiy munosabatlar va mulkiy kafolat munosabatlari lizing bitimlarining asosiy qatnashchilari o'rtasida shakllanadi. Ular to'g'risidagi ushbu huquqiy munosabatlar majmuasi qarz olish va investisiyalash, tovar bilan kreditlash va ijaraga oid munosabatlar, lizing mulkini xarid qilish shartlari, lizing bitimlarini sug'urtalash va soliqqa tortish, lizing to'lovlarini to'lash munosabati bilan yuzaga keladi. Ham kredit, ham lizing munosabatlarining asosini investisiyalash uchun resurslarni qarzga olish tashkil etadi. Shu bilan birga kredit munosabatlari bilan lizing munosabatlari o'rtasida muayyan aloqalar ham, muayyan tafovutlar ham mavjud .

4.3.1 –jadval.

Kreditor nuqtai nazaridan kredit va lizing munosabatlarining eng muhim tafovutlari

Ko'rsatkichlar	Munosabat turlari	
	Kredit	Lizing
Obyektga mulkchilik huquqi	Mulkchilik huquqi qarz oluvchiga beriladi. Egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqi qarz oluvchiga tegishlidir.	Obyektni mulk qilib olish opsiioni mulk huquqini topshirish emas. Egalik qilish va foydalanish huquqi mulkchilik huquqidan ajratiladi.
Sotuvchi bilan munosabatlarda xaridor hisoblanadi	Barcha holatlarda qarz oluvchi yoki uning vakili	Lizing oluvchi agar sotuvchini o'zi tanlasa, u xaridorga tenglashtiriladi. Aks holda mulkni keyinchalik ijaraga topshirish maqsadini ko'zlaydigan lizing beruvchi xaridor hisoblanadi.
Kreditning ta'minoti	Mol-mulkni garovga qo'yish, bank kafolati, ipoteka, kafillik va b.q.	Asosan lizing obyekti
Lizing obyektiga chiqimlar tasnifi	Kredit hisobidan investisiyalash	Lizing to'lovlari: kredit uchun haq, amortizasiya ajratmalari, vositachilik haqi, qo'shimcha xiz-matlar uchun xaq, QQS, sug'urta to'lovlari.

4.3.1 –jadval davomi.

Kreditni berish va uzish shakli	Valyuta- pul	To'lash - tovar shaklida, uzish - valyuta-pul, kompensasiya va aralash shakllarda
Savdo va kredit bitishu-ving o'zaro aloqasi	Kredit bitishuvi shartlari oldi-sotdi	Hamisha mulkni xarid qilishdan boshlanmaydi va hamisha sotish bilan nihoyatlanmaydi.
Kreditni uzish manbalari	qarz oluvchining foydasi hisobidan	Ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxiga ko'shiladigan amorti-zasiya va boshqa ajratmalar hisobidan.
Ko'shilgan Qiymat solig'iga tortish	Solinmaydi	Solinadi
Kredit munosabati qatnashchilari	Kredit beruvchi va qarz oluvchi	Lizing beruvchi, lizing oluvchi va lizing obyektini ishlab chiqaruvchi

Manba: Fozibekov D.F. va bosh. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2004.

2002 yil 28 avgustda qabul qilingan "Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra soliqqa tortilmaydi.

Oddiy bank krediti kabi lizing krediti ham muayyan maqsad uchun aniq muddatlarga qaytarib berish va xaq to'lash sharti bilan beriladi. Kredit munosabatlari kabi lizing munosabatlari ham shu munosabat qatnashchilaridan har birining manfaatlari mos kelganida va tegishli manfaatlar ko'rish umidida tarkib topadi. Bank krediti kabi lizing kreditini ham o'z vaqtida qaytarib berish va undan foydalanganlik uchun haq to'lash kerak. Bank krediti bo'yicha ham, lizing krediti bo'yicha ham qarz oluvchilarning qarzning asosiy summasini qaytarish va qarz yuzasidan haq to'lash imkoniyatlari aniqlanadi. Bank kreditiga ham, lizing kreditiga ham qarz olinishi asos bo'ladi. Bank kreditini berishda ham, lizing kreditini berishda ham u yoki bu loyihani investisiyalash qanchalik maqsadga muvofiq ekanligi haqida puxta ishlangan qaror qabul qilinadi. Bank kreditini olishda ham, lizing kreditini olishda ham qarz oluvchi o'z zimmasiga qarzning asosiy summasini va foizlarini o'z vaqtida to'lash majburiyatini oladi.

Mulkchilik huquqining egalik qilish va foydalanish huquqidan ajratilishi bank kreditining lizing kreditidan eng asosiy farqidir. Uzoq muddatli bank krediti berilganida kreditdan foydalanganlik uchun foizlar to'lash soliq to'langanidan keyin foyda hisobidan amalga oshirilsa, lizing berilganida bu to'lovlar boshqa to'lovlar bilan birga

mahsulot tannarxiga kiritiladi, bu esa foyda solig'i bo'yicha tegishli soliqqa tortish bazasini kamaytiradi.

Agar bank krediti moliyalashtirishning qo'shimcha manbai tarzida namoyon bo'lsa, lizing krediti qoida tariqasida bitimni yuz foiz moliyalashtirishni ta'minlaydi. Agar lizing mol-mulki lizing beruvchinint balansida aks etsa, bu narsa lizing oluvchining rentabellik, qarz va o'z mablag'lari koeffisiyenti kabi muhim balans ko'rsatkichlarini yaxshilab, qo'shimcha mablag' jalb etish uchun imkoniyat yaratadi. Lizing mol-mulki lizing oluvchining balansida (balansdan tashqari hisob raqamida) hisobga olingan taqdirda, lizing oluvchining balans ko'rsatkichlari kredit hisobiga sotib olishga nisbatan afzalroq bo'lib chiqadi, chunki qarz mablag'i bilan o'z mablag'i o'rtasidagi nisbat yaxshi tomonga o'zgaradi. Ko'pgina mamlakatlarda lizing munosabatlaridan foydalanish tufayli tadbirkorlar bank krediti hisobidan texnika sotib olgandan ko'ra 20-30 foiz kamroq mablag' sarflaydilar. Yuqorida ko'rsatilganlaridan tashqari yana bir qancha tafovutlar ham bor. Ammo lizing kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasiga va soliq qonunchiligiga nisbatan juda sezgir bo'ladi. Lizing qarz mablag'larini kelgusida ham jalb etish uchun asos yaratadi. Bu tafovutlar shundan kelib chiqadiki, lizing olinganida kredit munosabatlari keyinchalik ijara munosabatlari bilan uyg'unlashib ketadi. Shu bilan birga lizing munosabatlari sifat jihatidan ijara yoki yollashdan farq qiladi. Ijaradan lizingning farqi shuki, lizing beruvchi muayyan ishlab chiqaruvchidan muayyan ko'rsatkichlarga ega bo'lgan lizing mol-mulkini lizing oluvchining topshiruviga binoan sotib olish majburiyatini oladi.

Lizing jadal amortizasiyadan foydalanish imkonini beradi, shu yo'l bilan tadbirkor mulk solig'i summasini kamaytirishga erishadi. Lizing oluvchi oldidagi asbob-texnikalarning sifati, butligi, yetkazib berish muddatlari va boshqa xizmatlar uchun lizing beruvchi emas, balki mahsulot ishlab chiqaruvchi javob beradi. Lizing oluvchi uchun lizing soliq to'lovlari hajmini kamaytirish imkonini beradi. Lizing sifati jihatidan ham yollashdan farq qiladi.

4.3.2-jadval.

Lizing munosabatlari bilan yollash munosabatlarining eng muhim tafovutlari

Baholash	Munosabat turlari
----------	-------------------

	Yollash	Lizing
Ishlab chiqarish vositalariga munosabat	Foydalanish	Foydalanish, egalik qilish, qisman tasarruf etish
Yollash obyektga	Xodim	Mol-mulk
Resurslar uchun javobgarlik	Ma'naviy va qisman moddiy	To'liq mulkiy
Asosiy fe'l-atvor motivlari va stimullari	Avvalo fiziologik ehtiyojlarni qondirish	Shaxsiy imkoniyatni yuzaga chiqarish, sosial va intellektual ehtiyojlarni qondirish
Ishlab chiqarilgan mahsulot va daromadga bo'lgan huquq	Mahsulot va daromad korxona egasining mulkidir	Lizing oluvchi foydalanuvchiga tegishlidir
Tovar ishlab chiqaruvchining holati	Yollanma xodim	Tadbirkor-mulkdor
Bajaradigan funksiyalari	Ijrochilik	Ijrochilik, boshqaruvchilik, ya'ni ijodiy vazifalar
Boshqaruv usullari	Asosan ma'muriy boshqaruv	Qarzni o'zi boshqarish va boshqaruvning iqtisodiy usullari
Huquqiy tartibga solish	Mehnat munosabati	Moliyaviy, mulkiy, kredit, ijara, tijorat huquq munosabatlari, mulkchilik munosabatlari
Mehnatga haq to'lash darajasi	Mehnat shartnomasiga binoan	Lizing oluvchining qoldiq daromadi bilan belgilanadi
Menejerlar bilan munosabatlar	Tabaqaviy (iyerarxiyaviy)	Shartnomaga binoan, sherikchilik
Tashkiliy shakl	Yollanma mehnat	Mustaqil tadbirkorlik faoliyati

Lizing haqida qaror qabul qilganda avvalo, lizing loyihasiga alohida e'tibor berish, lizing obyektini yetkazib berish va qabul qilish shartlari, uni ishlatish, texnikaviy xizmat va boshqa shartlarni sinchiklab asoslash lozim. Aniq loyihaga investisiya sarflashning muqobil usullarini taqqoslashda lizing mol-mulkini xarid qilish yoki qaytarish sharoitlarini, soliq solinishini (ko'riladigan manfaat yoki zararni) sug'urta, to'lov usullarini, tovar bilan kreditlash shartlarini va umuman lizingning moliyaviy vazifalarini har tomonlama asoslash kerak bo'ladi. Lizing foydasiga investisiya

qarorlari qabul qilishda risklar xavfini baholash katta ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida"gi Qonuni 18 va 19- moddalariga binoan lizing obyekti bilan bog'liq barcha risklar lizing oluvchi zimmasiga yuklatiladi, bu esa lizing oluvchi faoliyatini og'irlashtiradi. Masalan, lizing obyekti sug'urtalash uchun javobgarlik lizing shartnomasida ko'rsatilmagan bo'lsa, buning uchun lizing oluvchi javobgar bo'ladi. Lizing obyekti bilan bog'liq bo'lgan barcha risklar, shu jumladan, uning tasodifan yo'qolishi yoki nobud bo'lishi, yoki o'g'irlanishi, barvaqt eskirishi, shikastlanish risklari lizing shartnomasida nazarda tutilgan tartibda lizing oluvchiga o'tadi. Risklar lizing oluvchiga o'tgan paytdan e'tiboran lizing oluvchi lizing obyekti harkanday yo'qotilishi yoki shikastlanishi uchun lizing shartnomasi amal qiladigan muddat davomida javobgar bo'ladi.

Qonunda ko'zda tutilishi bo'yicha, agar risklar lizing beruvchidan lizing oluvchiga o'tadigan vaqt lizing shart-nomasida belgilangan bo'lmasa, risklar lizing oluvchiga u lizing obyekti olgan paytdan e'tiboran o'tadi. Sotuvchining nochorligi yoki lizing obyektining undan foydalanish maqsadlariga nomuvofiqligi risklari lizing oluvchining zimmasida bo'ladi, lizing beruvchining sotuvchini yoki lizing obyekti tanlash yohud lizing beruvchi lizing oluvchini muayyan sotuvchini yoki lizing obyekti tanlashga g'ayri qonuniy tarzda majburlash holari bundan mustasnodir.

U yoki bu loyihalarni amalga oshirish yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonida lizing obyekti tadbirkorning o'zi vujudga kelayotgan ishlab chiqarish ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlar holatiga qarab tanlaydi. Har bir aniq loyiha barcha shart-sharoit va cheklashlarni hisobga olib alohida ko'rib chiqilishi kerak, chunki lizing investisiyalarni moliyalashtirish usullaridan biri ekanligi sababli, eng manfaatli bo'lgan taqdirdagina undan foydalanish lozim. Investisiya loyihasini moliyalashtirishning mumkin bo'lgan barcha usullari naqadar foydali va ishonchli ekani mezon bo'yicha taqqoslash asosida ulardan biri tanlab olinadi. Kreditorlar va qarz oluvchilar o'rtasidagi oddiy kredit munosabatlaridan farqli o'laroq, lizing munosabatlari ko'pgina mamlakatlarda, ayniqsa qo'shilgan qiymat solig'i kabi bilvosita soliq sohasida qattiqroq soliqqa tortiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, 2002 yil avgust oyidan boshlab O'zbekistonda lizing mulki qo'shilgan qiymat solig'idan (QQS) ozod qilindi.

Shunday qilib, tadqiqotlarning ko'rsatishcha, lizing munosabatlarning kredit munosabatlaridan afzalligi shundan iboratki, traktor narxi, muddati, shartnoma bo'yicha jami summa, lizing (kredit) muddati mobaynida to'lanadigan foiz summasidadir. Lizing uchun 10 yil mobaynida to'lanadigan foiz summasi 11928989 so'm, kredit uchun 3 yil mobaynida 11962840 so'mni tashkil etadi.

4.3.3.-jadval

Texnikani lizingga olishda yoki kredit hisobidan sotib olishda lizing mexanizmining kreditga nisbatan afzalligi (TTZ-80.11 rusumli traktor misolida)

T/R	Ko'rsatkichlar nomi	lizing	Kredit
1	Traktor narxi, so'm	44550263	48498000
2	Lizing (kredit) muddati, yil	10	3
3	Shartnoma bo'yicha avans to'lovi foizi, %	15	-
4	Shartnoma bo'yicha avans to'lovi summasi, so'm	6682539	-
5	Traktor narxini molialashtiriladigan qismi, so'm -lizing kompaniyasi tomonidan -tijorat banki tomonidan	37867724 -	- 48498000
6	Yillik lizing (kredit) foizi, %	6	16
7	Shartnoma bo'yicha jami summa -lizing uchun-10 yilga, so'm -kredit uchun-3 yilga, so'm	56479252 -	- 60460840
8	Lizing (kredit) muddati mobaynida to'lanadigan foiz summasi: -lizing uchun-10 yil mobaynida, so'm -kredit uchun-3 yil mobaynida, so'm	11928989 -	- 11962840

Manba "O'zqishloq xo'jalik mashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari

5. Qishloq xo'jaligida mehnatni muhofaza qilish

Mehnatni muhofaza qilish — bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy,

tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

Mehnatni muhofaza qilishni o'rganishdan maqsad – ishlab chiqarish jarayoni xavfsizligini chuqur o'rganish, bilish, tashviqot qilish va odamlarni xavf-xatardan himoya qilish masalalari asosida tarbiyalashdir. Buning ilmiy zamini:

- ishlab chiqarishda shikastlanish, kasbiy kasalliklar, yong'in va halokatlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish;

- mehnat jarayonida qo'llaniladigan asbob-anjomlarning xavfsizlik va zararlilik darajasini o'rganish;

- qishloq xo'jaligida qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizasiyalash va avtomatlashtirish jarayonlarni asoslash va baholash kabi ishlar asosida yaratiladi.

Mamlakatimizda mehnat muhofazasi qonun hujjatlari asosida belgilab qo'yilgan bo'lib, tartibga solinadi, boshqarib turiladi. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarni, ayniqsa ayollar va o'smirlarni og'ir va sog'liq uchun zararli bo'lgan ishlardan ozod qilish, qisqartirilgan ish kuni huquqi qonun bilan belgilab qo'yilishi, homiladorlik ta'tili, bola tarbiyasiga beriladigan ta'tilning uch yilgacha uzaytirilishi va boshqa imtiyozlar bunga misol bo'la oladi. Ayniqsa mustaqqillikdan keyin Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomondan ishlab chiqqan konvensiyalarni ratifikasiya qilinishi buning yaqqol dalilidir.

Respublikada sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish davlat ahamiyatiga molik ishdir. Sharoiti og'ir va zararli ishlarda ayollar va yoshlar mehnatidan foydalanish taqiqlanadi. Homilador ayollarning tunda va ishdan tashqari vaqtda ishlashlari cheklangan. Qonunda sharoiti zararli bo'lgan ishlarda, shuningdek, alohida harorat sharoitida bajariladigan yoki ifloslanish bilan bog'liq ishlarda ishlaydigan ishchi-xizmatchilarga belgilangan me'yorlarga muvofiq bepul jomakor, maxsus poyabzal va boshqa turdagi yakka tartibdagi himoya vositalari, sut yoki uning o'rnini bosa oladigan boshqa oziq - ovqat mahsulotlari berilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalash huquqiga egadir». Ushbu moddada ko'rsatilgan kafolat va ijtimoiy muhofazani qonuniy mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993yil 6 maydagi № 839-XII sonli buyrug'iga asosan “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun” qabul qilindi.

O'zbekiston respublikasining Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi Qonuni, ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'iy nazar, mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'lig'i va mehnatini muhofaza qilinishni ta'minlashga qaratilgan.

Mazkur Qonun 29 modda 5 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, unda kundalik hayotimizda mehnat muhofazasining umumiy qoidalari, mehnatni muhofaza qilinishini ta'minlash, ishlovchilarning mehnatini muhofaza qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar, mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat va jamoatchilik nazorati va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi masalalar o'z aksini topgan. Shu bilan birga ishlab chiqaruvchi va ishlovchi o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy asosini belgilovchi qonun “O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi “ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 21 dekabrda 161-1 sonli qarori asosida tasdiqlandi va 1995 yil 21 dekabrda 162-1 sonli qaror asosida 1996 yil 1-apreldan amalga joriy qilindi.

Mazkur qonun 16 bob va 294 moddadan tashkil topgan bo'lib, 13-bobi (211-223moddalar) mehnat muhofazasiga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat munosabatlarin tartibga solishni huquqiy asosi Mehnat kodeksiga binoan:

Yoshlar mehnatini muhofaza qilish. Respublikamizda yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, ularni ishga joylashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa balog'at yoshiga yetmagan o'smirlarni ishga qabul qilishdagi kafolatlar va imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksining 239-

moddasida quyidagicha qayd etilgan: Mehanat kodeksiga binoan, 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar uchun bir ish haftasidagi ish soati 36 soat, 15 - 16 yoshda yesa 24 soatgacha qisqartirilgan (242- modda). 18 yoshga to'lmagan o'smirlarni ish vaqtdan tashqari va dam olish kunlari ishlarga jalb qilish mumkin emas (245-modda). 16-18 yoshdagi o'smirlar uchun tashiydigan va siljitadigan yukning og'irligi o'g'il bolalar uchun 13 kg, qizlar uchun 7 kg dan ortiq bo'lmasligi kerak. O'smirlar uchun uzluksiz tashiydigan va siljitadigan yukning miqdori 4,1 kg dan ko'p bo'lmasligi lozim, 14-15 yoshdagi o'smirlar uchun yesa me'yor 2 martagacha kamaytiriladi (SQ va M 0052-96). O'smirlar doimiy ishga 16 yoshdan qabul qilishga ruxsat etiladi, ayrim hollarda 15 yoshga to'lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsdan yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin. Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta'lim maktablari, hunar-texnika bilim yurti va o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchilarini 14 yoshga to'lganlaridan keyin ota-onasidan birining yoki ular o'rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan o'smirlarning voya va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta'lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni, o'qishdan bo'sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladi. 18 yoshga kirmagan shaxslarni og'ir, zararli va xavfli mehnat sharoitlarida ishlatish mumkin emasligi mehnat kodeksining quyidagi moddasida o'z aksini topgan: (241-modda.) O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan foydalanish taqiqlanadigan ishlar. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar mehnatidan shu toifa xodimlarining sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloq-odobiga ziyon yetkazilish mumkin bo'lgan mehnat sharoiti, noqulay ishlarda, yer osti ishlarida va boshqa ishlarda foydalanish taqiqlanadi. O'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning belgilab qo'yilgan me'yordan ortiq og'ir yuk ko'tarishlari va tashishlariga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan ishlar ro'yxati va o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar ko'tarishlari va tashishlari mumkin bo'lgan og'ir yuk me'yorlarining chegarasini O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofoza qilish vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston kasaba uyushmalari Federasiyasi Kengashi

va ish beruvchilarning vakillari maslahatini olgan holda belgilaydi. (O'zbekiston respublikasi MK). Qishloq xo'jaligida bularga pilla zavodlarda, tirkama qishloq xo'jaligi mashinalarida tirkamachi, g'o'zani sug'orishda, tamakini yig'ib-terib olishda, tashishda va birlamchi ishlov berishda ishga jalb qilish man etiladi. Murakkab bo'lmagan tirkama va stasionar qishloq xo'jaligi mashinalarida ishlashda va xizmat ko'rsatishda maxsus guvohnomalar talab qilish zarur bo'lmagan ishlarga, o'smirlarni 17 yoshdan ishga qabul qilishga ruxsat etiladi.

Ish vaqti va dam olish. Ish bilan ta'minlovchining farmoyishi bo'yicha ayrim xodimlarni alohida hollardagina, jamoa shartnomasi tuzilib kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishib belgilangan asoslar bo'yicha dam olish kunlari ishga chiqishga taklif etiladi (130-modda). Xodimlarni dam oladigan kunlari ishga jalb etish (120, 132, 245-moddalarda) belgilangan cheklanishlarga rioya yetgan holda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda texnik va boshqa sabablarga ko'ra ishni to'xtatib turish mumkin bo'lmagan joylarda, aholiga xizmat ko'rsatish zarurati bo'lgan ishlarda, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan ta'mirlash va yuk ortish tushirish ishlarida bayram kunlari ishlashga ruxsat etiladi (132-modda). Dam olish va bayram kunlari bajariladigan ishlar uchun kompensasiya va haq to'lash mehnat kodeksining 157- moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Korxonalar va ayrim ishlab chiqarishlarda ish turiga qarab, kundalik yoki haftalik ish kuniga rioya qilib bo'lmaydigan toifadagi ishchilar va xizmatchilarga, kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda ish kunini jamlab hisobga olish (123-modda) usulini kiritishga yo'l qo'yiladi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda lizing faoliyati sohasi O'zbekistonda iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Lizing ishlab chiqaruvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik bo'lib, bunda ishlab chiqaruvchi o'z ishlab chiqargan mahsulotini lizing orqali tezda sotish, iste'molchi korxona esa, lizing yordamida kam mablag' sarflash orqali yangi texnika olish va o'z mashina-traktor parkini jadal yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hozirgi vaqtda respublikamiz lizing bozorida jami 87 ta korxona va tashkilot lizing faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lib, shundan 46 tasini ixtisoslashgan lizing kompaniyalari, 23 tasini tijorat banklari va 18 tasini boshqa korxonalar va kichik moliyaviy muassasalar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor hamda yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar lizing sohasini respublikamizda jadal rivojlanishida asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Lizing beruvchilar Uyushmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda keyingi 7 yil ichida lizing operasialari hajmi 90,6 mlrd so'mdan 484,5 mlrd so'mgacha oshib, 5,3 barobarga o'sgan, 2012 yilda esa lizing operasialari hajmining 500,0 mlrd so'mdan oshishi kutilmoqda.

Qishloq xo'jaligini modernizasiyalash sohasida lizing xizmatlari ko'rsatish bo'yicha "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalarini foydalanuvchilar tomonidan lizing orqali xarid qilinishi o'z qulayligi va maqbulligini ko'rsatmoqda. Bu, Hukumatimiz tomonidan lizing sohasida yaratilgan imtiyozlar natijasidir.

Kompaniya o'z faoliyatini boshlagan 2000 yildan boshlab o'tgan davr mobaynida respublikamizdagi 29 mingdan ortiq qishloq xo'jaligi korxonalariga jami 590 mlrd. so'mlik qiymatdagi 42 ming 890 donadan ortiq har xil turdagi qishloq xo'jaligi texnikalarini lizingga yetkazib berishni amalga oshirdi.

Lizingga yetkazib berilgan texnikalar qiymati bo'yicha tahlil qilinganida 2011 yilda Kompaniya tomonidan 133,2 mlrd. so'mlik qiymatdagi texnikalar lizingga yetkazib berilgan bo'lib, bu 2008 yildagi (48,9 mlrd. so'm)ga nisbatan 2,7 barobarni tashkil etadi. 2012 yilda 167,7 mlrd so'm qiymatdagi yoki 2011 yildagiga nisbatan 26,0 foizga ko'p qiymatdagi texnikalar lizingga yetkazib berildi.

Respublika qishloq xo'jaligi korxonalariga lizingga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jalik texnikalari turlari ham yildan-yilga ko'payib bormoqda. Jumladan, 2008 yilda 18 turdagi texnikalar lizingga yetkazib berilgan bo'lsa, 2011 yilda 30 xil turga, 2012 yilda esa 38 turga yetkazildi.

Lizingga berilgan qishloq xo'jalik texnikalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganida Qashqadaryo, Samarqand, Surxonadaryo va Farg'ona viloyatlari tomonidan eng ko'p miqdordagi texnikalarni lizingga olinganligini ko'rish mumkin.

Forij tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligining lizingga texnika olish bo'yicha taqdim etgan "Biznes-rejasi" samaradorligi va xo'jalikning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini tahlilini ko'rib chiqdik. Forij tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligi 1 dona TTZ-80.11 rusumli traktorni 10 yillik muddatga lizingga olish uchun Buyurtma bergan va "Lizing operatsiyalarini o'tkazish Nizomi" da belgilangan xujjatlarni to'liq taqdim etgan.

Xo'jalikning 2013 yil 1-yanvar xolatidagi buxgalterlik balansi aktiv qismida naqd pul va qisqa muddatda sotiladigan tovarlari qimmatli qog'ozlari yo'q. Qisqa muddatda sotiladigan tayor mahsulot tovarlari 27058,9 ming so'mni va uzoq muddatda sotiladigan tayyor mahsulot, xom-ashyo materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish yo'q. Uzoq muddatda sotiladigan bin ova inshootlari 26020,7 ming so'mdan iborat. Balansning passiv qismida kreditor qarzlari 26683,6 ming so'mni tashkil qiladi. Qisqa muddatli kreditlari va uzoq muddatli kreditlari yo'q. Xo'jalikning ijara majburiyatlari va qarzдорlikdan tashqari xususiy vositalari 23780,0 ming so'mni tashkil qiladi. Xo'jalikning sotiladigan tovarlari summasi uning to'lov majburiyatidan 375.3 ming so'm ortiq.

2012 xo'jalik yildagi " moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot -2 sonli shakliga" muvofiq sotgan mahsulotidan 114262.0 ming so'm daromad olgan, sof foydasi esa 7480 ming somni, rentabellik darajasi 6,5 % ni tashkil etgan. Xo'jalikning olgan sof foydasi lizingga oladigan traktor uchun yillik lizing to'lovidan 1.2 marta ortiq.

Forij tumanidagi «Asil bobo» fermer xo'jaligi tomonidan «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» ALK Jizzax viloyati filialidan 44550263 so'mlik «TTZ-80,11» rusumli chopiq traktorini 10 yillik muddatga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 424-sonli «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori bilan belgilangan tartibda lizingga oladi. Lizing shartnomasiga ko'ra

lizing to'lovlari hisoblanish usuliga ko'ra-bo'nakli, kiritilishining davriyligi bo'yicha-davriy, ya'ni to'lov xar 6 oyda bir marta, to'lanilishining miqdoriga ko'ra-kamayib boradigan miqdorlar bilan amalga oshiriladi. Shartnoma bo'yicha lizing summasi 56479,252 ming so'mga teng bo'lib shartnoma shartiga ko'ra texnika narxining 15 foizi, ya'ni 6682,539 ming so'mlik qismi lizing oluvchi tomonidan avans sifatida lizing beruvchiga to'lab berilgan. Texnika narxining 85 foizi, ya'ni 37867,724 ming so'mlik qiymati lizing kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan. Lizing oluvchi tomonidan 10 yil mobaynida to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovlarining umumiy summasi 49796,713 ming so'mni tashkil etadi. Lizing beruvchining daromad (marja) foizi miqdorini ko'rsatuvchi lizing stavkasi (L_s)-yillik 6%. Lizing obyekti lizing oluvchi tomonidan «O'zagrosug'urta» sug'urta kompaniyasining Forij tuman bo'linmasida 10 yillik lizing muddatiga sug'urtalangan bo'lib, sug'urta mukofotini (St) to'lash xarajati 445500 so'm to'lab berilgan. Lizing obyekti «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan respublika ichida, ya'ni Toshkent traktor zavodidan xarid qilinganligi munosabati bilan bojxona bojini to'lash xarajatlari nolga teng. «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tomonidan lizing obyektiga davlat raqam belgisini olish, birinchi texnik ko'rikdan o'tkazish va texnik pasport olish xarajatlari uchun 100283,4 so'm qo'shimcha xarajat (Q_x) qilingan.

Lizing marjasi xar olti oyda ushbu shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblangan jadvalda ko'rsatilgan to'lov grafigi asosida traktorning amaldagi qoldiq qiymatining to'liq miqdoriga hisoblanadi. Birinchi to'lov texnika olingan vaqtdan boshlab, qaysi sana oldin keshiga qarab, 1 iyul yoki 1 yanvargacha hisoblanadi. Lizing shartnomasiga ilova qilingan va yuqorida bayon qilingan formula asosida xisob-kitob qilingan lizing to'lovlari grafigiga muvofiq «Asil bobo» fermer xo'jaligi 10 yil uchun 11928,989 ming so'mlik lizing daromadi (marjasi) foizi summasini amalga oshirgan. 2013 yil uchun tuzilgan Kontraktasiya shartnomasiga asosan fermer xo'jaligi 19,2 gektar maydoniga g'alla va 34,1 gektar maydoniga chigit ekadi. Davlatga 20111,0 ming so'mlik qiymatdagi 59,5 tonna g'alla va 68909,6 ming so'mlik qiymatdagi 89,9 tonna paxta hosili sotadi. Jami

bo'lib fermer xo'jalik 89020,6 ming so'mlik qiymatdagi 158,4 tonna mahsulotni davlatga sotadi. Xo'jalikning boshqa qo'shimcha daromad turi va daromad manbasi yo'q. Xo'jalik taqdim etgan "Biznes-Rejasi" loyihasi bo'yicha TTZ-80.11 Rusumli traktorni lizingga olish uchun 6682,5 ming so'm avans mablag'ini o'z mablag'idan to'lab berishni rejalashtirgan. 2013 yil uchun to'lanishi lozim bo'lgan lizing to'lovining 3191,5 ming so'mini paxta va g'alla etishtirish uchun mexanizasiya xizmatlariga ajratiladigan imtiyozli kredit mablag'larining 60 % lik hisob kitobidan to'lab berishni rejalashtirgan. Qolgan 2808,5 ming so'mini paxta va g'alla xom ashyosi topshirilgandan so'ng 90 % lik va yakuniy hisob kitoblardan to'lab berishni rejalashtirgan. Lizing muddatining keying yillarida ham ushbu mexanizm asosida to'lab berishni rejalashtirgan. Tahlil natijalariga ko'ra Fermer xo'jaligining to'lov qobiliyatini baholash koeffisientlari bo'yicha qoplash va likvidlik koeffisientlari 2- sinfga, mustaqillik koeffisientlari 1- sinfga, moliyaviy-iqtisodiy tahlil natijasi bo'yicha 2- toifaga kiradi. Sof foydasining yillik lizing to'lovlari summasiga nisbatan 1.2 barobar yoki 1480,0 ming so'm ga ko'p.

lizingga olingan TTZ- 80.10 rusumli traktordan 10 yillik lizing muddati mobaynida foydalanish natijasida fermer xo'jaligi tomonidan olingan jami daromad 1004468,0 ming so'm, yillik agrotexnik tadbirlar xarajati 664385 ming so'mni tashkil etib, lizingdan foydalanish evaziga olingan sof daromad 283057,9646 ming so'mni yoki samaradorlik darajasi 39,2 % ni tashkil etgan.

Shunday qilib bitiruv malakaviy ish mavzusida asosiy dolzarb masalalar bu lizingni huquqiy jihatdan tartiblashtirish va rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarimizni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- lizing qonunchiligi, lizingga texnikalar olish tartibi va lizing shartnomasini tuzish bo'yicha huquqiy yordam;
- lizing sohasida buxgalteriya hisob-kitobini yuritish bo'yicha maslahatlar;
- lizingga texnika olish uchun "Biznes reja" tuzish tartibi bo'yicha amaliy yordam;
- joylarda lizing faoliyatini tushuntirish bo'yicha lizing oluvchilar ishtirokida davra suhbatlari va seminarlar o'tkazish;

- lizingga olinayotgan qishloq xo'jalik texnikalari va ularning texnik ko'rsatkichlari to'g'risida reklama bukletlari tarqatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. –T.: O'qituvchi, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. –T.: Adolat. 1999.
4. O'zbekiston Respublikasining “Fermar xo'jaligi to'g'risida”gi Qonuni (Yangi tahrirda). // Xalq so'zi, 2004.
5. O'zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to'g'risida”gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari.-T.: O'zbekiston, 1992.
6. O'zbekiston Respublikasining “Lizing to'g'risida”gi Qonuni. 14.04.1999.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18 mart 1998 yil PF-1978 –sonli farmoniga 1–ilova. 1998-2000 yillardagi qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish Dasturi. Qishloq xo'jaligida islohatlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami. -T.: 1998.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo'jaligidagi islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida”gi Farmoni. // Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari.-T.: Fan, 2003.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida”gi Farmoni.// Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. -T.: Fan, 2003

10. “2005-2007 yillarda fermer xo’jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 607-sonli qarori. 24.12. 2000 y.
11. O’zbekiston Respublikasi qonunlar xujjatlari to’plami. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Lizing tizimini rivojlantirishni yanada rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni. – T.: O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, № 15-16 2002. - 48 bet.
12. “Lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining №199- sonly qarori.– T.: 2004.
13. “O’zqishloqxo’jalik mashxolding tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarilgan qishloq xo’jalik texnikalarini lizingga sotib olish tartibi to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining № 424- sonly qarori, 2.11.2000 y.
14. Karimov I.A. Qishloq xo’jaligi taraqqiyoti – to’kin hayot manbai.-T.: O’zbekiston, 1998.
15. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yig’ilishida so’zlagan nutqi. 1994.-18 fevral.
16. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008.
17. Karimov I.A. Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari.–T.: O’zbekiston, 2009.
18. Karimov I.A. Bu muqaddas vatanda azizdir inson. –T .: O’zbekiston, 2010.
19. Karimov.I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarni ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo’lishiga erishish–bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. // Xalq so’zi. 07.12.2012.
20. Karimov.I.A. Bosh maqsadimiz–keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish. O’zbekiston respublikasi Prezidentining 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo’jallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi.// Xalq so’zi. 19.01.2013.

21. Abdug'aniyev A, Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi. 2004.
22. Abdullayev A.A., Aybeshov X.A. Fermer xo'jaligi iqtisodi.-T.: Aloqachi, 2008.
23. Abdullayev S.P., Abdurahmonov M.A va boshqalar. Lizing... Bu nima?-T.: Oz'bekiston, 2006.
24. Ismoilov A. Q., Murtazayev O. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: Moliya, 2005.
25. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. –T.: Istiqlol, 2004.
26. Olimjonov O., Farmonov T.,va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. – T.: Universitet. 2005.
27. Zokirov O., Xudoyberdiyev T., Pardayev A. Agroiqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida texnikadan samarali foydalanish. - T.: Fan va texnologiya, 2005.
28. Fozibekov D.F. va bosh. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiya, 2004. – 308 bet.
29. Qudratov T. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining tahlili. Samarqand, 2008.
- 30.Qoraqolpag'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining viloyatlar va Toshkent shahar xokimlarining o'rinbosarlari, ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchilari, tuman va shahar xokimliklarining mintaqaviy seminarlari materiallari, 2010 yil.
- 31.Internet saytlari.
- 31.1.Internet ma'lumotlari: www.pres-service.uz.
- 31.2.Internet ma'lumotlari: www.ers.usda.gov.
- 31.3.Internet ma'lumotlari: www.samqxi.uz.
- 31.4.Internet ma'lumotlari: www.edu.uz.
- 31.5.Internet ma'lumotlari: www.usda.gov.
- 31.6.Internet ma'lumotlari: www.tsue.gov.

- 31.7. Internet ma'lumotlari: www.mikro-makroiqtisodiyot.yaho.uz.
- 31.8. Internet ma'lumotlari: www.forum.uz.
- 31.9. Internet ma'lumotlari: www.ziyo.net.
32. "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALK Jizzax viloyati filiali ma'lumotlari.